

**‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI
TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIRATSIYA INSTITUTINING
BUXORO FILIALI**

GIDROMELIORATSIYA FAKULTETI

“YER TUZISH VA YER KADASTRI” KAFEDRASI

**“Shofirkon tuman I.Mo‘minov massivida ichki xo‘jalik yer tuzish
ishlarini bajarish” mavzusida**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: “Yer tuzish va yer kadastri” ta’lim
yo‘nalishi bitiruvchi 4 kurs talabasi
Qutliyev Jasurbek Saidovich

ILMIY RAXBAR:
Professor Bo‘riyev S.

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o‘tdi.
9- sonli bayonnomasi 23 may 2016 yil

BUXORO – 2016 y

Kirish

1. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida respublikamizda qishloq xo'jalik yerdan foydalanishlarini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari.
2. Sug'oriladigan yerlarda yer tuzish va fermer xo'jaliklarini tashkil etishdagi xususiyatlar.
3. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi, unda qo'yilgan vazifalar va asos kilib olingan materiallar.

I bob. Massiv hududining tabiiy va iqtisodiy sharoiti

- I.1. Massiv to'g'risida umumiy ma'lumotlar.
- I.2. Tabiiy sharoiti (iqlimi, relefi, tuproqlari).
- I.3. Massiv hududi bo'yicha yerdan foydalanishning holati (yer eksplikatsiyasi)
- I.4. Irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlari tavsifi.
- I.5. Aholi yashash joylari tavsifi.
- I.6. Dehqonchilik tavsifi.
- I.7. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari.

II bob. Massivda almashlab ekish hududini tashkil qilish loyihasi .

- II.1. Sug'orish dalalarini (paykallarini) loyihalash .
- II.2. Almashlab ekish dalalarini joylashtirish.
- II.3. Fermer xo'jaliklari (Brigada) maydonlarini joylashtirish
- II.4. Dala yo'llarini joylashtirish.
- II.5. Ihota daraxtlarini joylashtirish.

III bob. Massivda almashlab ekish hududini tashkil qilish loyihasini iqtisodiy asoslash

- III.1. Massivda etishtiriladigan mahsulotlar hajmi va qiymatini hamda ular uchun qilinadigan yillik harajatlar miqdori va sof daromadni aniqlash.
- III.2. Loyihaning asosiy texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarini aniqlash (jadval)
- III.3. Loyihaviy tadbirlarni ekologik asoslash.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Ilovalar.

Kirish

O'zbekiston respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan vazirlar mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida ta'kidlashlaricha -“Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida ham chuqur tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Murakkab ob-havo sharoitiga qaramasdan, fermer va dehqonlarimizning fidokorona mehnati va omilkorligi tufayli o'tgan yili mo'l hosil yetishtirildi – 7 million 500 ming tonnadan ziyod g'alla, 3 million 350 ming tonnadan ortiq paxta xirmoni barpo etildi. Ta'kidlash kerakki, bunday mo'l hosil asosan qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni jadallashtirish, seleksiya ishlarini yaxshilash, g'o'za va boshqli don ekinlarining rayonlashtirilgan navlarini joriy qilish, zamonaviy agrotexnologiyalarni o'zlashtirish evaziga ta'minlandi.

Mamlakatimizda bug'doydan gektaridan o'rtacha 55 sentner hosil olingani, ayrim tumanlarda bu ko'rsatkich 60-77 sentnerni tashkil etgani, hech shubhasiz, fermerlarimizning ulkan yutug'idir. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligining meva-sabzavotchilik, bog'dorchilik, uzumchilik va chorvachilik kabi tarmoqlari ham jadal sur'atlarda rivojlandi. O'tgan yili 12 million 592 ming tonna sabzavot va kartoshka, 1 million 850 ming tonna poliz mahsulotlari, 1 million 556 ming tonna uzum, 2 million 731 ming tonna meva yetishtirildi. Qishloq xo'jaligi xomashyosini chuqur qayta ishlash, yetishtirilgan mahsulotlarni saqlash infratuzilmasini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. O'tgan yili qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan 230 ta korxona, 77 ming 800 tonna sig'imga ega bo'lgan 114 ta yangi sovutish kamerasi tashkil etildi va modernizatsiya qilindi. Mamlakatimizda meva-sabzavotlarni saqlashning umumiy quvvati 832 ming tonnaga yetkazildi. Bu esa, yil davomida narxlarning mavsumiy keskin oshib ketishiga yo'l qo'ymasdan, aholini asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash, ushbu mahsulotlarni eksport qilishni kengaytirish, narx-navo barqarorligini saqlash imkonini bermoqda.

Bularning barchasi fidoyi dehqon va fermerlarimiz, barcha qishloq xo'jaligi xodimlarining mashaqqatli va sharaflı mehnati mahsulidir, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Fursatdan foydalanib, bugun, mana shu yuksak minbardan turib, barcha qishloq mehnatkashlariga yana bir bor chin qalbimdan samimiy minnatdorlik izhor etishni o'zimning burchim deb bilaman". 2016 yilgi vazifa qilib – "Biz uchun asosiy vazifa – ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan uzluksiz yangilab borish, doimiy ravishda ichki imkoniyat va zaxiralarni izlab topish, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni izchil davom ettirishdan iborat bo'lishi zarur. Zamonaviy texnologiyalar asosida paxta tolasini va meva-sabzavot mahsulotlarini chuqur qayta ishlash tashqi va ichki bozorda talab yuqori bo'lgan tayyor, ekologik toza to'qimachilik va yengil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2030-yilda 5,6-marta, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash hajmini esa 5,7 karra oshirish imkonini beradi.

Joriy yilda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 7,8 foizdan iborat bo'lishini ta'minlash, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 8,2 foiz, qishloq xo'jaligida 6,1 foizga oshirish, chakana savdo aylanmasini 14 foiz, xizmatlar ko'rsatish hajmini 17,4 foizga ko'paytirish vazifasi qo'yilmoqda. Inflatsiya darajasini 5,5-6,5 foiz doirasida saqlab qolish, aholining real daromadlarini 9,5 foizga, o'rtacha ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalarni, soliq imtiyozlarini inobatga olgan holda, 15 foizga oshirish ko'zda tutilmoqda.

Ana shu vazifalarni amalga oshirishda 2016-yilga mo'ljallangan Investitsiya dasturining hayotga tatbiq etilishi o'ta muhim o'rin tutadi. Nega deganda, bu dastur sanoatda, butun iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarning eng muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi.

2016-yilda qishloq joylarda 1 million 800 ming kvadrat metrdan ziyod hajmdagi 13 mingta uy-joy barpo etish, uzunligi 900 kilometr ichimlik suvi, gaz va elektr tarmoqlari, 325 kilometr yo'l qurish mo'ljallanmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, 2016-yilda iqtisodiyotimizni rivojlantirish, modernizatsiya qilish va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun 17 milliard 300 million dollar

qiymatidagi investitsiyalar yoʻnaltirish, ularning oʻsish surʼatini 109,3 foizga yetkazish belgilangan.

Qishloq xoʻjaligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va tarkibiy oʻzgarishlarni yanada chuqurlashtirish, yer va suv resurslaridan samarali foydalanish 2016-yil va yaqin istiqbolga moʻljallangan iqtisodiy dasturimizning prinsipial muhim yoʻnalishidir. Aytish kerakki, mazkur tarmoqda xoʻjalik yuritishning fermerlik tizimiga oʻtilishi munosabati bilan fermerlar uchun ijara mulki huquqi asosida ajratiladigan yer maydonlarini optimallashtirish masalasi dolzarb boʻlib qolmoqda.

Bu tadbirni amalga oshirish, birinchi navbatda, sugʻoriladigan dehqonchilik sharoitida, suv taqchilligi va yerlarning aksariyat qismi kuchli shoʻrlangan bir vaziyatda Qoraqalpogʻiston Respublikasi, viloyatlar va qishloq tumanlarida ekin maydonlari amalda tuproq unumdorligi va yer boniteti boʻyicha keskin farq qilishi bilan bogʻliq. Turli mintaqalarda tashkil qilingan fermer xoʻjaliklarining toʻplagan rivojlanish tajribasi, samaradorligi va rentabelligini hisobga olgan holda, ularni oqilona va qulay miqdordagi yer uchastkalari bilan taʼminlash uchun qattiq ish olib borishga toʻgʻri keldi.

Shu borada yer maydonlari hajmini aniqlashda subyektiv yondashuvlarga yoʻl qoʻymaslik va bunday holatlarning oldini olishda ana shu oʻta muhim ishni amalga oshirish masʼuliyati deputatlar korpusi, Fermerlar kengashi va jamoatchilik zimmasiga yuklatilgani hal qiluvchi omil boʻldi.

Yer maydonlarining optimallashtirilishi natijasida 17 ming 500 dan ortiq yangi fermer xoʻjaligi va 250 mingdan ziyod ish oʻrni tashkil etildi. Toshkent, Jizzax, Namangan, Samarqand, Qashqadaryo, Fargʻona, Andijon viloyatlari va Qoraqalpogʻiston Respublikasida eng koʻp fermer xoʻjaliklari faoliyati yoʻlga qoʻyildi. Fermer xoʻjaligini yuritish uchun yer maydonlari ajratish va taqsimlashning yangi mexanizmi joriy etildi. Unga muvofiq, qarorni tuman hokimi emas, balki Fermerlar kengashi va Yer uchastkalari taqdim etish masalalarini koʻrib chiqish komissiyasi xulosasi boʻyicha xalq deputatlari tuman kengashlari qabul qilmoqda.

Yana bir oʻta dolzarb va uzoqni koʻzlagan masalaga alohida toʻxtalib oʻtmoqchiman.

Bu o'rinda 2020-yilgacha paxta xomashyosini yetishtirish va uni davlat tomonidan xarid qilish hajmini 3 million 350 ming tonnadan 3 million tonnaga bosqichma-bosqich qisqartirish haqida so'z bormoqda.

Hisob-kitoblar shuni ko'rsatmoqdaki, shunday hajmdagi yetishtiriladigan paxta hosili, bir tomondan, xomashyoni o'zimizda chuqur qayta ishlashni inobatga oladigan bo'lsak, avvalo, to'qimachilik va yengil sanoatning ana shu xomashyoga bo'lgan ehtiyojini nafaqat to'la ta'minlaydi, balki O'zbekistonning jahon bozoriga paxta tolasi va undan tayyorlanadigan mahsulotlar yetkazib beradigan mamlakat sifatidagi mAlihkam mavqeini saqlab qolish imkonini ham beradi.

Paxta yetishtirish hajmini 350 ming tonnaga qisqartirish hisobidan 170 ming 500 gektar sug'oriladigan yer paxtadan bo'shaydi. Bu jarayonda, albatta, avvalo mamlakatimiz bo'yicha paxta hosildorligi gektaridan o'rtacha 26,1 sentnerni tashkil etib turgan bir paytda hosildorligi 12-15 sentnerdan oshmaydigan past bonitetli yerlarni paxtadan bo'shatishga e'tibor qaratiladi. Asosan sho'rlangan, shuningdek, paxta yetishtirishga yaroqsiz bo'lgan tog'oldi yerlariga g'o'za ekilmaydi.

Bunday qarorga kelishimizning yana bir sababi borki, u ham bo'lsa, so'nggi yillarda jahon bozorida paxta tolasining narxi va unga bo'lgan talabning keskin pasayib ketishi bilan bog'liqdir.

Paxtadan bo'shagan ekin maydonlarida avvalo, sabzavot va kartoshka, shular qatorida ozuqa ekinlari, yog'-moy olinadigan va boshqa o'simliklar ekiladi, bog' va uzumzorlar barpo etiladi.

Ekin maydonlarining optimallashtirilishi va zamonaviy agrotexnologiyalarning joriy etilishi natijasida 2020-yilda boshqoli don yetishtirishni 16,4 foizga oshirib, uning hajmini 8 million 500 ming tonnaga yetkazish, kartoshka yetishtirishni 35 foizga, sabzavotni 30 foizga, meva va uzumni 21,5 foiz, go'sht yetishtirishni 26,2 foizga, sutni 47,3 foiz, tuxumni – 74,5 foizga ko'paytirish, baliq yetishtirishni 2,5-martaga oshirish ko'zda tutilmoqda. Ayni paytda ana shu turdagi oziq-ovqat mahsulotlarini eksport qilish hajmi sezilarli darajada ortishini ham hisobga olish zarur.

Ijtimoiy sohani rivojlantirish, aholining hayot darajasi va sifatini yanada oshirish bilan bog'liq masalalar bundan buyon ham e'tiborimiz markazida bo'lib qoladi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi Shofirkon tumanidagi I.Mo‘minov massivida faoliyat ko‘rsatayotgan fermer xo‘jaliklari hududini tashkil etishdan iboratdir. Ishda qo‘yilgan maqsadga erishish uchun mavjud fermer xo‘jaliklari ishlab chiqarish faoliyati, biriktirib berilgan yerdan foydalanish ahvoli, ularda ishlov berish uchun mavjud texnikalar miqdori va ta‘minoti, tuman hokimiyati bilan tuzilgan shartnoma shartlarining bajarilishi (yillar bo‘yicha) hamda fermer xo‘jaligining moliyaviy imkoniyatlari o‘rganib chiqiladi. Bunda quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

- fermer xo‘jaliklariga biriktirilayotgan yer maydonini qo‘yilgan maqsad va vazifalarni bajarishga zarur hamma shart-sharoitlarni yaratish imkoniyatini berishi;
- yerning maydon o‘lchami, shakli va tabiiy sharoiti qo‘yilgan maqsadlarga mos tushishi;
- yer, suv va boshqa tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga va ularni muhofaza qilishga sharoit yaratilishi;
- yerlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun qilingan xarajatlardan oqilona foydalanish, qimmatbaho yer turlarini maksimal saqlash, hududlarning tashkil qilinishini buzmaslikning ta‘minlanishi.

Bitiruv malakaviy ishiga qo‘yilgan vazifalarni bajarish uchun massivda faoliyat ko‘rsatayotgan fermer xo‘jaliklari to‘g‘risida quyidagi materiallar asos bo‘lib xizmat qiladi:

1. Massiv hududining tabiiy va iqtisodiy sharoitlarini tavsiflovchi umumiy ma‘lumotlar;
2. Massiv hududida yer turlari va qishloq xo‘jalik ekinlarining amalda joylashuvi tarxi;
3. Konturlar bo‘yicha maydon hisoblash qaydnomasi;
4. Yer ajratish bilan bog‘liq huquqiy hujjatlar.

I - BOB. MASASSIVNING TABIIY VA ITISODIY TAVSIFLANISHI.

1.1.XO`JALIK TO`G`RISIDA UMIMY MA`LUMOT

1.1 «I.Mo`minov» massivi Shofirkon tumaning shimoliy sharqida joylashgan, massiv paxtachlikka ixtisoslashgan bo`lib, undan tashqari, bog`dorlik, ipakchlik ham rivojlangan. Massiv hududi shimol tomondan J.Oripov massivi yerlari bilan, sharqdan Oxunboboev massiv yerlari bilan janub tomondan N. Hamroev massivi yerlari bilan, g`arb tomondan Shofirkon massiv yerlari bilan chegaradosh. Massivning markaziy qishlog`i Kalon bo`lib, u tuman markazi bilan 6 km, viloyat markazi bilan 56 km uzollikda joylashgan. Yer egaliklarida hozirgi kunga kelib oilalar soni 2514 tani axoli soni 13213 nafarni tashkil etmoqda. Massivning umumiy yer maydoni 2855 ga yerni tashkil qiladi. Bundan tashari massivda begona yerdan foydalanuvchilar yerlari joylashgan. Massiv yarim cho`l mintaqasida joylashgan bo`lib, yozi issiq qishi sovuq bo`ladi. eng sovuq oylari massivning tabiiy sharoitlarini o`rganishda asosiy e`tiborni samarali harorat yig`indisiga, vegetatsiya o`simliklarning rivojlanishi davri uzunligiga, yillik yog`ingarchilik miqdori va ularning fasllar bo`yicha taqsimlanishiga, shamol tezligi va yo`nalishiga qaratdik. Massivning yerdan foydalanishining o`rganishni rel`efini o`rganishdan boshladik. Rel`ef shakli yerdan foydalanishni tashkil qilish tizimiga va mahalliy iqlimga ta`sir qiladi. Qiyaliklarning shakli uzunligi va joylashuvini jarliklarni soylarni o`rgandik. Rel`ef keskinligini oshishi tuproq yerroziyasi kuchayishiga va sug`orishning qiyinlashishiga olib keladi.

1.2. Tabiiy sharoitlar (tuproq, iqlim, o`simlik, rel`ef, yer osti va yer usti suvlari, antropogen omillar)

Tuproqlari. Hozirgi kunlarda Shofirkon tumani tuproq kartasi xo`jaliklarining asosiy kartografik xujjatlaridan xisoblanib u orqali tuproqlarning unumdorligini oshirish, agromeliorativ, agrokimyoviy va agrotexnikaviy chora tadbirlarni bajarish ishlari amalda tadbiq qilish uchun qo`llaniladi. Bu ishlarning boisi xo`jaliklardagi xar xil tuproqdarning unumdorligini va kishloq xo`jalik o`simliklarning xosildorligini ko`paytirishdir. Undan tashqari shirkat xo`jaliklardagi turli yerlar xakidagi ma`lumotlar xam aynan shu kartalarda o`z aksini topadi. Chunki tuproqlar

banitrovkasi kartasida tuproqdarning, tiplari, tipchalari, guruxlarini kursatish bilan bir kdtorda turli dalada xar xil tuproqlar xosildorligini xam aniq kursatiladi. Bu ma'lumotlar shirkat xo'jaliklarning fermerlari, dexkonlari, agranomlari, raxbarlari uchun anik yer tuproq tuzilishini va undan okilona foydalanishni kursatadi va kuyidagi amaliy ishlarda kullaniladi.

Ona jinslari. Ona jinslari tuproq paydo qiluvchi jarayonlar orasida asosiy o'rinni egallaydi. Demak ular ustida rivojlangan tuproqlarning granulometrik tarkibi xar xil bo'ladi. Shu sababli og'ir mexanik takibli bo'lgan tuproqlarda suv - xavo xossalari nokulay bo'lishi, sizot suvlarini satxini chuqurligi sugorish natijasida yer yuzasiga yaqin joylashadi. Ularning okrvaligi yomonlashadi. Drenaj - kollektor tizimlari kam ta'minlangan sharoitda tuproqlarda Shurlanish, botkrkdanish va gleyli gorizontlarning rivojlanishi kuzatqiladi. Shu bois tuproq paydo qiluvchi ona jinslarning xillari tarkibi va ularni fizikaviy xususiyatlari sugorqiladigan dexkonchilikda juda katta axamiyat kasb etadi. Masalan sugorilib dexkonchilik kilinadigan Shofirkon tumani tuproq xosil kiluvchi ona jinslarining Shurlanganligi, o'rganilgan tuproqlarda ikkilamchi sho'rlanish jarayonlarini xosil qilishga va ularning tuproqlarda rivojlanishiga olib keladi. Undan tashqari Zarafshon daryosi del'tasini quyi xududlarida sugorish suvlari tarkibidagi bo'lgan loyqali zarrachalarning miqdori juda ko'pligi, har bir gektar yerga yiliga bir necha tonnalab loyka yotkdgziklarini tuplanishiga olib keladi. Bu loyka zarrachalarning granulometrik kimyoviy, minyeralogik tarkibi Shofirkon tuman sugorqiladigan tuproqlarning paydo bo'lish jarayonlarini va ularning yunalishlarini belgilab byeradi. Shu sababli tuproq paydo qiluvchi ona jinslar Shofirkon tumani tuproqdarining vujudga kelishida muxim axamiyatga ega, uni xech qanday boshqa omil bilan almashtirish mumkin emas, ma'lum bir sharoitda u etakchi rol'ni xam o'ynaydi. Hattoki ona jins tuproq paydo qiluvchi omillardan biri sifatida ayrim joylarda rel'fning shakllariga xam ta'sir etadi. Shuningdek tuproq xosil qiluvchi ona jinslar, o'simliklar qoplami rivojlanishiga xam ta'sir ko'rsatadi.

Iqlimi. O'zbekiston ulkan Evro - Osiyo kontinentining markazida joylashgan. Mamlakatimizning xududini beshdan to'rt kismi O'rta - Osiyoning cho'l va yarim

cho'l keng yerlarida joylashgan bo'lib, janubiy - sharq va sharq tomondan baland tog' tizmalariga borib tutashadi. Shimoldan Janubiy Qozog'iston cho'llari bilan chegaralangan bulib, shimoliy – sharq va sharkdan Tyanshan bilan, janubiy Sharqda esa Hisor - Olay tog' tizmalari bilan qo'shib ketgan. Qizilqum hududini Qoraqumdan Amudaryo bo'ylab uncha baland bo'lmagan Ustyurt platosi ajratib turadi.

Respublika xududidagi mavjud iklimning muhim omili yer yuzasiga kelayotgan va ayniksa yoz oylarida kuchayadigan kuyosh radiatsiyasidir. Markaziy Osiyo iklim mintaqasiga ko'z tashlaganda Zarafshon daryosi del'tasining kuyi oqimida joylashgan Jondor tumani issiq cho'l mintaqasida joylashganligi ma'lum buladi. Bu yerda yoz kunlari issiq, kishi esa ancha sovuq tun bilan kunning orasidagi iklim keskin uzgarib turadi. Havo quruq, yog'ingarchilik kam. YOz faslida xarorat issiq bo'lishi ekinlarning normal o'sishiga ta'sir qiladi. Tuproq koplamiga ham o'z ta'sirini utkazadi. Jondor tumanining yillik xarorati 20° S dan yukori. Paxta usish davridagi musbat xaroratning yigindisi 4750 - 4950 $^{\circ}$ S. Iqlim quruqsizligi bu yerda yog'in - sochinning kamligi bilan ifodalanadi. 1 yilda urtacha 125 mm yog'ingarchilik kuzatiladi. Yer satxidan parlanish yiliga 2500 mm atrofidadir. Kuz davrida xam qurg'oqchilik kuzatiladi. Qish va baxor davrida yog'ingarchilik kisha muddatli bo'ladi. YOz oylarining nisbiy namligi 20% dan ortmaydi. O'simlik va tuproq qatlamiga ta'sir qiluvchi yana bir omilga shamol ta'sirini ko'rsatish mumkin. Masalan bu yerda shamolning yo'nalishi ko'prok shimoliy g'arbdan bo'lib turadi. SHamol olib kelgan qum va qumloqli zarrachalarning sug'oriladigan yerlarda tarqalishi tuproq qatlamida har xil mexanik tarkibli tuzilmalarning xosil bo'lishiga olib keladi. Bundan tashkari shamol xavo qurg'okchiligiga olib keladi. Buning natijasida xavo kurukligi o'z navbatida paxta va boshka

O'simliklari va xayvonot dunyosi. O'simliklar xam tuproq paydo bo'lishida muxim axamiyat kasb etadi: Tuproq o'simliklar, xayvonlar, zamburug'lar, mikroorganizmlar uchun ekologik muxit xisoblanadi. O'simlik koplami xaddan tashkari xilma - xil bulib tabiiy mintakalar va regionlar buylab konuniy ravishda taksimlanadigan o'simlik guruxlariga yoki fitotsenozlarga bulinadi.

Madaniy o'simliklar tuproq paydo bo'lishida muxim rol' uinaydi. Tumanning sugorqiladigan maydonlarida ajratilgan omillar ta'sirida o'simlik tarkibi keskin uzgargan, tabiiy o'simlik koplami butunlay yukotilgan. Madaniy o'simliklarga ishlov byerishda, xamda begona utlarga xar xil kimyoviy moddalarni kullash natijasida tabiiy o'simliklar koplami yukolgan. Sug'oriladigan yerlarda koladigan organik moddalar mikdori xam keskin uzgaradi, chirindi xosil bo'lish jarayoni xam boshkacha tipda kechadi. Bu xududdagi tuproqlarda o'simliklar yer yuzida usmaydi, va tabiiy sharoitga mos tukayzorlar yer yuzida tula koplam xosil kilmaydi, va bu yerda chimli katlam rivojlanmaydi. Bu mintakada rivojlangan o'simliklar ayrim xollarda tuproqlarni Shurlanishiga sababli buladi. Tuproq paydo bo'lish jarayonida o'simliklardan tashqari xayvonlar, mikroorganizmlarning xam roli nixoyatda kattadir. Mikroorganizmlar tuproqqa tushadigan organik moddalar, o'simlik koldikdarini, nobut bo'lgan xayvonlar va mikroorganizmlar tanalarini chiritadi, tuproqda chirindi xosil bo'lishida katnashadi, va unda minyeral moddalarning kayta uzgarishiga atmosferadagi gazeimon birikmalarni xamda tuproq xavosining uzgarishida imkon yaratadi. Mikroorganizmlarni umumiy mikdori gektariga 5 tonnagacha etadi. Ularni asosiy massasi tuproqning yukrri gorizontlarida sugorqiladigan tuproqdarning, xususan xaydalma katlamida tuplanishiga zamin xosil qqiladi. CHarlz Darvin ma'lumotiga ko'ra yomg'ir chuvalchanglarining ichaklaridan bir yilda gektariga 22 - 28 tonnagacha tuproq o'tganligi sababli tuproqdarda unumdor struktura xosil buladi. Shunday kilib tuproq paydo bo'lishiga biologik omilning, o'simliklarning axamiyati kattadir. O'simlik va xayvonot dunyosi tuproqding evolyutsiyasi va uzgarishida katta rol' uynaydi.

Rel'efi. Tuproq paydo kiluvchi muhim omillardan yana biri rel'fdir. U tuproqlarning vujudga kelishi, tuproq qoplami xilma-xilligini vujudga kelishini kursatadi.

Rel'ef asosan quyosh radiatsiyasi va namlikni yer yuzasida kdyta taksimlashda ishtirok etadi. Bizning kuzatishlarimiz va ilmiy ishlarimiz olib borilgan tuman xududida 2 ta geomorfologik rayon ajratiladi.

Hozirgi zamon Zarafshon del'tasining kuyi kismi qadimgi Moxonko'l allyuvial-prolyuvial pasttekisligi. Sugoriladigan yerlarning barcha maydonlari Shu geomorfologik rayonlarda joylashgan. Kdtsimdan sugoriladigan yerlar Zarafshon daryosi del'tasi tekisligida joylashgan bulsa, yangidan uzlashtirilgan yerlar esa Moxonkulni atrofida uncha chukur bulmagan past tekisliklarda tarqalgan, xududning juda kup joylardan sugorish tarmokdari va kollektorlar utkazilgan.

O'rganilayotgan xudud allyuvial va prolyuvial yotkiziklar bilan tulgazilgan bulib geografik jixatdan depressiyada joylashgan. Bu yotkiziklar ogir, engil, urta kumloq va kumdan iborat. Ularning tuzilishi va xususiyati turli katlamlardan iborat. Allyuvial yotkizikdarning yuza kismi agroirrigatsion keltirilmalari bilan krplangan bulib, ularning kalinligi 0,5-1,5 sm ni tashkil etadi.

Ayrim joylarda esa undan xam kalinrok bo'lishi mumkin. Masalan Shofirkon, Revgariy Vardonze xududlarda ularning kalinligi to 1,5 - 2,0 m gacha. Ma'lumki, bu yotkizikdarning paydo bo'lishi inson faoliyati bilan, ya'ni kup yillar dvomida dexkrnchilik madaniyatini rivojlantirish bilan boglikdir. YUkorida ta'kidlagandek bu yotkiziklar mexanik tarkibiga kura kup joylarda xar xildirlar. Shuning uchun ular kup xollarda xar xil darajada Shurlangan.

Yer osti suvlari va ularning minyerallaShuvi darjasi. Massivda relyefning ko'tarilgan yuqori qismlarda sizot suvlarning oqib chiqishi va rel'efning joylashgan pastki qismida sizot suvlarining chuurligin 1,5- 3m atrofida bo'lib ularning oavoligi masssivning yillik arorati 20 gradus dan yuqori. Paxta o'sish davridagi musbat aroratining yiindisi 4750- 4950 gradus.

Ilim uruligi bu yerda yog'in sochinning kamligi bilan ifodalanadi. 1yilda o'rtacha 125mm yog'ingarchlik kuzatiladi. Yer satidan parlanish yiliga 2500mm atrofida kuz davrida yog'ingarchlik qisqa muddatli bo'ladi SHamol yo'nalishi ko'proq shimoliy g'arbdan bo'lib turadi.

Inson faoliyati. Tuproq xosil bo'lish jarayoni tabiiy sharoitlar bilan chambarchas bog'lik bo'lgan xolda inson faoliyati ta'sirida xam uzgaradi. Inson uzining yashashi uchun zarur bo'lgan sharoitni yaratish uchun tukayzorlarni yaylovlarni uzgartirib urmonlarni kesadi, yullar chikaradi, kanal kazib dare uzanlarini uzgartiradi, yerlarni

sugorganda ularning tabiiy rivojlanish jarayonini uzgartiradi. Bu xol Markaziy Osiyoda Shuningdek Uzbekistonda N.A.Dimo, H.Maksudov, S.Abdullaev, M.Sattorov, M.A.Orlov, A.N.Rozanov, S.N.Rijov, N.V.Kimbyerg kabi bir kator olimlar tomonidan chukur urganilgan, bu ishlarning ba`zi bir umumlashtirilgan natijalari (1975) "Uzbekistan tuproqlari" kabi monografiyalarda chop etilgan. Tabiiy biogeotsenozda tuproq va o`simliklar bir-biri bilan kuchli bogliq bo`lganligi anikdangan. O`simliklarning usishi va xosili tuproq unumdorligiga va uning xossa xususiyatlaridan ajralmas boglangan bulib kup jixatdan moddalarning biologik aylanma xarakatini belgilaydi va Shu tufayli tuproq xossalariga ta`sir etadi.

Shuning uchun xam tabiiy sharoitda ma`lum tuproqskunalarning uzgarishiga sabab buladi. Madaniy o`simliklardan farkli ularok tuproqqa talabchan buladi. Bu o`simliklarning usishi uchun tuproqqa etarli bulmagan sharoit inson tomonidan yaratqiladi. Madaniy o`simliklar kiska vegetatsiya davrida juda kup ozuka unsurlariga muxtoj sezadi va ularni asosan tuproqdardan oladi. Ana Shu unsurlarni tuproqqa kaytarish maksadida organik va minyeral ugitalar ishlatqiladi. Bundan tashkari sugorish suvi uz tarkibida yerigan va kattiq xoldagi ozuka elementlarni olib keladi. Shu bilan bir vaktida agroirrigatsion keltirilmalar tuproq profilida tuz va ozuk unsurlarining kayta taksimlanish xisobiga yangi tuproq koplami paydo buladi. Demak inson faoliyati tuproq paydo bo`lishi da muxim omil xisoblanadi.

(1-jadval)

I.3. Massiv hududi bo`yicha yerdan foydalanishning holati (yer eksplikatsiyasi)

2016 yil 1 yanvar` holatiga nisbatan «I.Mo`minov» massiviga 2855 ga yer maydoni foydalanish uchun biriktirilgan. Massiv yer fondining yer turlari bo`yicha taqsimlanishi to`g`risidagi ma`lumotlar quyidagi 2- jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Massivning yer fondi

№	Yer turlari	Umumiy maydoni ga	Umumiy maydonga nisbatan, % hisobida	Qishloq xo`jalik yerlariga nisbatan, %

1	Haydalma yerlar: Shu jumladan: sug`oriladigan	1785	42.8	61.09
2	Ko`p yillik daraxtzorlar, jami:	25,0	3,4	4.8
	Shu jumladan, bog`lar	10		0.6
	uzumzor	4		0.2
	tutzorlar	11		4
3	O`tloq va yaylovlar	652	23.8	34.02
	Jami qishloq xo`jalik yer turlari	1986	70	100
4	Tomorqa yerlari	33	6	
5	Terakzor	6.6	0,3	
6	Ixota daraxtlari va terakzor	10	0,04	
7	Qurilishlar, ko`chalar, maydonlar	26	1.4	
8	Ariq, kanallar va zovurlar	103	4.8	
8	Yo`llar	42	1,9	
10	Qishloq xo`jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlar	648.4	15.7	
	Xo`jalikka biriktirilgan yerlar, jami	2855	100	

2-jadval ma`lumotlaridan ko`rinadiki, massiv umumiy maydonining 61.09 % ini, ya`ni 1785 ga maydonni haydalma yerlar tashkil qiladi. Daraxtzorlar maydoni 25 ga, bu esa umumiy maydonning 4.8 % ini tashkil etadi. Bunda bog`zorlar maydoni 10 ga, uzumzorlar maydoni 4 ga, tutzorlar maydoni 11 ga ni tashkil etadi. Jami qishloq xo`jalik yerlari 1986 gektar bo`lib, umumiy yer maydonining 70 % ini tashkil qiladi. Tomorqa yerlari maydoni 33 ga bo`lib, bu umumiy yer maydonining 6 % ini tashkil etadi.

Massiv hududida fermer xo`jaliklari tashkil etilishi natijasida maydonlar fermer xo`jaliklariga taqsimlab byerildi. Fermer xo`jaliklariga biriktirilgan yer maydonlari va yer turlari haqidagi 2016 yil 1 yanvar holatiga bo`lgan ma`lumot quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval ma`lumotlaridan ko`rinadiki, fermer xo`jaliklari asosan, paxta-g`allachilik va bog`dorchilikka ixtisoslashgan bo`lib, ularning umumiy soni 50 tani, Shu jumladan paxta-g`allachilik yo`nalishiga ixtisoslashgan fermer xo`jaliklari soni 47 tani, paxta- g`alla-bog` yo`nalishida 2 ta, chorvachilik yo`nalishida 1 ta ni tashkil

etadi. Jami fermer xo'jaliklariga birlashtirib berilgan yerlar maydoni 2855 gektarni tashkil qilmoqda. Fermer xo'jaliklariga birlashtirib berilgan jami xaydalma yerlar maydoni 1785 gektarni, jami qishloq xo'jalik yer turlari esa, 1986 gektarni tashkil etadi. Shu jumladan ko'p yillik daraxtzorlarning umumiy maydoni 25 gektarni, bundan 10 gektarni bog'zorlar, 4 gektarni uzumzorlar, 11 gektarni esa, tutzorlar maydoni tashkil etadi.

I.4. Irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlari tavsifi

Sug'oriladigan mintaqalarda irrigatsiya va melioratsiya shahobchalari tug'risidagi to'la ma'lumotlarga ega bo'lish muhim ahamiyatga ega. Zarafshon massivning dalalari sug'orish tarmoqlari bilan yaxshi ta'minlangan. Asosiy sug'orish tarmog'i Amu –Buxoro mashini kanali hisoblanadi. Sug'orish tarmoqlari va zovurlar 103 ga ni tashkil etadi. Massivdagi sug'orish tarmoqlarining asosiy kamchiligi Shundan iboratki, bu ariqlar hudud tashkil qilinganda nov kanallar qurilgan bo'lib, hozirgi kunda ko'pchilik hismlari ishga yaroqsiz holga kelib qolgan va kapital ta'mirga muhtoj, injenyerlik tarmoqlari bilan kam ta'minlangan.. Massiv hududida beton ariqlar yillar o'tishi bilan ta'mirlanmagan Shu sababli sug'orish tarmoqlarining o'rtacha foydali ish koeffitsienti 0,76 – 0,81 ni tashkil qiladi. Umumiy taqsimlangan suvning 15 – 20 % yer ostiga singadi. Xo'jalikning ba'zi uchastkalarida mayda-mayda sug'orish tarmoqlarining mavjudligi, dalalar sathining kichikligi, dalalar tuzilishining noto'g'riligi suvning ko'p miqdorda sarf bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Yer osti suvlarini yig'gich – meliorativ tarmoqlar, ya'ni zovurlardir. Ularning umumiy uzunligi 44,79 km.ni tashkil etadi.

I.5. Aholi yashash joylari tavsifi

Massiv xududida joylashgan aholi punktlarida yashaydigan aholining umumiy soni 13213 odamni tashkil qiladi. Aholi asosan Kalon qishlog'ida istiqomat qiladi. O'z navbatida mazkur massiv uchun markaziy qishloq vazifasini ham bajaradi. Bu qishloq boshqa massiv qishloqlari bilan yaxshi yo'l aloqasiga ega. Shuningdek, mazkur qishloq tuman markazi yonida joylashgan bo'lib, aholi uchun ko'plab qulayliklarga ega. Qishloqlardagi aholi soni hamda qishloqlarning obodonlashtirilganlik darajasi quyidagi 4-jadvalda keltirilgan.

Massivdagi aholi yashash joylari tavsifi

Qish-loq nomi	Oilalar soni	Aholi soni		Madaniy maishiy bino va inshootlar	Obodonlashti-rilgan-ligi	tomor-qa yer may-doni, ga	Bajaradi-gan vazifasi
		ham-masi	meh-natga yaroqli				
Kalon	200	1000	610	QFY,maktab, bog`cha, maga-zin, QVP, AYOQSH, qishloq guzari, sartaroshxona	gazlash-tirilgan, elektrlashtiril-gan,ichimlik suvi bilan ta`min-langan	33	Marka ziy qishloq
Maxalla poyon	85	411	240	QFY,maktab, bog`cha, maga-zin, QVP, AYOQSH, qishloq guzari, sartaroshxona	gazlash-tirilgan, elektrlashtiril-gan,ichimlik suvi bilan ta`min-langan		Yordamc hi qishloq
Jami	285	1411	850				

I.6. Dehqonchilik tavsifi

Massivda faoliyat ko`rsatayotgan fermer xo`jaliklarining ishlab chiqarish faoliyatining 2013 yil ma`lumotlari bo`yicha taxlili Shuni ko`rsatadiki, asosiy dehqonchilik tarmog`i paxtachilik va g`allachilik hisoblangani holda, bog`dorchilik, pillachilik va sutchilik ham mavjud bo`lib bu tarmoqlar ham rivojlanmoqda. Fermer xo`jaliklarida etishtiriladigan qishloq xo`jalik ekinlari tarkibi tavsifi 5-jadvalda keltirilgan.

Fermer xo`jaliklarida qishloq xo`jalik ekinlari tarkibi

t/r	Ekinlar turi	Ekin maydonlari , ga	Shu jumladan, % hisobida	Hosildor ligi ts/ga	Yalpi mahsulot
1.	Paxta	515	33.60	29	149.35
2.	Bug`doy	314	20.4		
	Don			36	1130.4
	Somon			30	942
3.	Beda	45	3		
	Birinchi yili	22	1	40	
	Keyingi yillar	23	1.6	100	
4	Arpa:	15	0.9		
	Doni			30	45
	samoni			25	37.5
5	Sabzavot	12	0.78	140	168
6	Poliz	11	0.71	210	231
7	Makkajo`xori doni	24	1.5	50	120
8	Kartoshka	13	0,84	100	1300
9	Bog`lar	10	0.6	40	40
10	Uzumzorlar	4	0.2	45	18
11	YAylovlar	523	34.1	5	261.5
	Jami	1533.0	100.0		

Yuqoridagi jadvaldan ko`rinib turibdiki, haydalma yerlarda paxta ekini bilan band maydon 515 ga bo`lib, umumiy ekin maydonlarining 33.6 %ini tashkil qiladi. Don maydonlari esa, umumiy ekin maydonlarining 314 gektarini yoki 20.4 % ini tashkil etadi. Em-xashak ekinlari ekilgan maydon umumiy ekin maydonining 3,86 % ini, ya`ni 76 gektarini tashkil etadi.

Ma'lumki, mavjud fermer xo'jaliklarining 1 tasi chorvachilikka ixtisoslashtirilgan bo'lib, massivda chorva mollari ham parvarish qilinadi. Massiv hududidagi chorvachilik tavsifi quyidagi 6-jadvalda keltirilgan.

6-jadval

CHorva mollari tarkibi va bosh soni

T.r	CHorva mollari turlari va guruhlari	Bosh soni	Umumiy bosh soniga nisbatan % hisobida
1	Qora mollari,	329	100
	Shu jumladan: - sigirlar	145	44
	- buqalar	10	3
	- g'unajjinlar	70	21.2
	- buzoqlar	104	31.8

Umumiy qora mollar soni 329 boshni tashkil etadi.

Ishlab chiqarishni tahlil qilishda ekin maydonlarining miqdori bilan birga etishtirilgan mahsulotning miqdori, hosildorlik ko'rsatkichlari ham muhim ahamiyatga ega. Quyidagi 7-jadvalda dehqonchilik mahsulotlarini etishtirish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

7- jadval

Qishloq xo'jalik mahsulotlari

T/r	Ekinlar turi	Maydoni, ga	Hosildorligi, ts	Yalpi mahsulot hajmi, t
1.	Paxta	515	22	14935
2.	Bug'doy: doni	314	36	11304
	somoni		30	942
3	Sabzavot	12	140	1680
4	Kartoshka	13	100	1300

5	Em-xashak ekinlari:			
	makkajo`xori: doni	24	50	1200
	poyasi	13	200	2600
	beda	45	76	3420
Jami		939		

Fermer xo`jaliklarida 2016 yil 1 yanvargacha 850 ta mexnatga qobiliyatli kishi mavjud bo`lgan. Shundan 800 kishi to`g`ridan-to`g`ri fermer xo`jaliklarida qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishida qatnashgan. 50 kishi esa boshqa ishlar bilan band bo`lgan. Massivda fermer xo`jaliklariga biriktirilgan bog`dorchilikka ixtisoslashgan fermer xo`jaliklari ham mavjud bo`lib, bog`dorchilik maydonlari va boshqa qishloq xo`jalik yerlaridan olinayotgan mahsulotlar miqdori 8-jadvalda keltirilgan.

8- jadval

Qishloq xo`jalik yer turlari tarkibi, hosildorligi va Yalpi mahsuloti

T/r	Qishloq xo`jalik yer turlari	Maydoni, ga	Xosildorligi, ts/ga	Yalpi mahsulot, t
1.	bog`	10	40	400
2.	uzumzor	4.0	45	180
3.	tutzor	61	50	30.5

I.7. Qishloq xo`jalik ishlab chiqarishining asosiy iqtisodiy ko`rsatkichlari

Massivning ishlab chiqarish faoliyatini baholash uchun asosan iqtisodiy samaradorlik ko`rsatkichlarini tahlil qilish lozim.

9-jadval

Sotiladigan qishloq xo`jalik mahsulotlari qiymati

t/r	Qishloq xo`jalik	Miqdori,	O`lchov	Umumiy	Sotiladigan
-----	------------------	----------	---------	--------	-------------

	mahsulotlari nomi	tonna	birligi bahosi, mingso`m	bahosi, ming so`m	mahsulotlar qiymati, ming so`m
1	2	3	4	5	6
1	Paxta	1260	500	630000	630000
2	Bug`doy: doni	1160.4	170	197268	197268
	somoni	895	28	25060	-
3	makkajo`xori: doni	120	200	24000	24000
	poyasi	406	75	30450	-
4	Beda	266	100	26600	-
5	Meva	68	200	136000	136000
6	Uzum	45	200	900	900
7	Sabzavot	147	350	73500	73500
8	Kartoshka	94	900	84600	84600
9	Sut	174	1000	174000	174000
10	Go`sht	13.16	11000	144760	144760
11	Pilla	3.521	2700	9506.7	9506.7
12	Chorvachilik	0.77	3000	2310	2310
	Jami				1596874.7

10- jadval

Massivning asosiy iqtisodiy samaradorlik ko`rsatkichlari

t/r	Ko`rsatkichlar	O`lchov birligi	Miqdori
1.	Yalpi mahsulot qiymati	Ming so`m	1656906.7
	Shu jumladan: Dehqonchilik	Ming so`m	1596874.7
	Chorvachilik	Ming so`m	330576.0
2.	Ishlab chiqarish xarajatlari	Ming so`m	1019373,7
	Sof daromad	Ming so`m	304488,3

	Rentabellik	%	30.1
--	-------------	---	------

10-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, xo'jalikda rentabellik darajasi 30.1 % tashkil etadi.

2013 yil yakunlari bo'yicha fermer xo'jaliklarida etishtirilgan maxsulotning umumiy qiymati 1656906.7 ming so'mni, ishlab chiqarish xarajatlari 1019373,7 ming so'mni, sof daromad 304488,3ming so'mni va samaradorlik ko'rsatkichi 30.1 ni tashkil etgan.

II.BOB. XO'JALIKDA ICHKI YER UZISHNING VAZIFALARI VA MAZMUNI

II.I. Xo'jalikda ichki yer tuzishning mohiyati

Qishloq xo'jaligi amaliyotida ishlab chiqarishni va hududni tashkil etish masalalarini o'zaro bog'liq holda echish xo'jalikda ichki yer tuzish davomida amalga oshiriladi. Yer mulkchiligining paydo bo'lishi va rivojlanishi bilan birga oldiniga yerlarni ajratishga, yer egaliklari va yerdan foydalanishlarni shakllantirishga va bo'lishga, ularning chegaralarini mustahkamlashga qaratilgan xo'jaliklararo yer tuzish rivojlana boshladi. Keyinroq, yirik korxonalar paydo bo'lishi bilan xo'jalikda ichki yer tuzish zarurati tug'ildi. Yirik yer egaliklari ayrim hududiy - ishlab chiqarish, xo'jalik bo'laklariga bo'linar edi. Ularni Rossiyada XIX asrda va XX asrning boshida ekono-miyalar, fermalar, fol'varklar deb atashdi. Yer tuzish jarayonida hududni qishloq xo'jaligini yuritish zaruratlariga moslash: qishloqlarni joylashtirish; yo'l tarmoqlarini rejalashtirish; maydonlarni yer turlariga (haydalma yerlar, bog'lar, pichanzorlar va yaylovlar), yer turlarini - almashlab ekishlar va dalalarga, dalalarni - foydalaniladigan uchastkalarga bo'lish; joylarning suv rejimini tartibga solish, suv bilan ta'minlash va melioratsiya masalalari echilar edi.

Shu davrda Rossiyada xuddi Shunday mazmunga jamoa yerlarini ko'p dalali almashlab ekishga o'tkazish, ko'p polosalikni, uzoq yerlarni va mayda dehqon xo'jaliklarini tugatish uchun bo'lish zaruratidan kelib chiqadigan qishloqlar ichida yer tuzish ham ega edi.

Xo'jalikda ichki yer tuzish bo'yicha ishlarning keyingi rivojlanishi yirik qishloq xo'jalik korxonalari - kolxozlar va sovxozlarni tashkil etish bilan bog'liq bo'ldi. O'tgan asrning 20-chi yillari oxirida qishloq xo'jaligidagi yoppasiga kollektivlashtirish va yangi tashkil etilgan qishloq xo'jalik korxonalarida yer tuzish zarurati sababli «xo'jalikda ichki yer tuzish» atamasi yer tuzishning maxsus va o'quv adabiyotlariga mustahkam kira boshladi. Birinchi bosqichlarda xo'jalikda ichki yer tuzish, asosan, haydalma yerlar massivlarini ajratish va ularni almashlab ekish dalalariga, brigada uchastkalariga bo'lishdan iborat bo'ldi. Keyinchalik uning asosida aholi yashash joylarini, ishlab chiqarish markazlarini, fyermalarni, yo'llarni, suv inshootlarini, daraxtzorlarni, pichanzorlar va yaylovlarni joylashtirish boshlandi.

Xo'jalikda ichki yer tuzish asosida ilmiy asoslangan, usiz ishlab chiqarishni va hududni oqilona tashkil etib bo'lmaydigan, loyiha yotadi. U yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning iqtisodiy manfaatlarini maksimal qondirishga yo'naltirilgan va yerlardan yuqori samarali foydalanish va uni oqilona tashkil etishga qaratilgan.

Xo'jalikda ichki yer tuzish ishlab chiqarishni, mehnatni va qishloq xo'jalik korxonalarini boshqarishni oqilona tashkil etish, xo'jalik yuritish, dehqonchilik, qishloq xo'jalik ekinlarini etishtirish texnologiyalari, mashinalar tizimining ilg'or tizimlarini qo'llash uchun hududiy asos bo'lib xizmat qiladi, bu esa ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini oshirish sharti sifatida xizmat qiladi. Bunda yerlardan foydalanish tartibi va sharoitlariga rioya qilinadi, tuproqlar unumdorligining qayta tiklanishi, saqlanishi va tabiiy landshaftlarning yaxshilanishi ta'minlanadi.

Xo'jalikda ichki yer tuzishning asosiy maqsadi yerlardan va u bilan bog'liq boshqa ishlab chiqarish vositalaridan oqilona foydalanishni, ularni muhofaza qilishni va yaxshilashni tashkil etish, uning tabiatni muhofaza qilishga qaratilganligini va

qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining maksimal iqtisodiy samaradorligini ta'minlash hisoblanadi.

Shu sababli, qishloq xo'jalik korxonalarida ichki yer tuzishda, bir tomondan, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini, uning yer uchastkalari sifatini va joylashgan o'rinlarini hisobga olgan holda hududiy tashkil etish va joylashtirish amalga oshiriladi, ikkinchi tomondan esa - xo'jalik yerlaridan foydalanish, ularni muhofaza qilish va samaradorligini oshirish, har bir yer bo'lagi hududini tuzish bo'yicha tadbirlar tizimi belgilanadi.

Shunday qilib, xo'jalikda ichki yer tuzish - bu aniq qishloq xo'jalik korxonalarida yerlardan va ular bilan bog'liq ishlab chiqarish vositalaridan oqilona foydalanishni va ularni muhofaza qilishni tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy jarayoni bo'lib, o'z ichiga ishlab chiqarishni va hududni tashkil etish bo'yicha loyiha asosida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimini oladi.

Xo'jalikda ichki yer tuzishning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

xo'jalik yerining har bir bo'lagi vazifasini uning agroekologik xususiyatlari va joylashgan o'rniga, ishlab chiqarish kuchlarining zamonaviy rivojlanish darajasiga, ilmiy-texnik jarayon yutuqlariga, qishloq xo'jalik ekin-larining yuqori hosildorligini va yer turlarining yuqori mahsuldorligini, tuproqlar unumdorligining oshishini va ularning buzilish jarayonlari to'xtatishini ta'minlovchi yer munosabatlariga mos tarzda foydalanishni oqilona tashkil etish va uni muhofaza qilishni aniqlash;

xo'jalikda ishlab chiqarishning asosiy elementlari va sharoitlari: yer, ishchi kuchi, ishlab chiqarish vositalari, ularning o'zaro bog'lanishi orasidagi son va sifat jihatdan mutanosiblikni, balanslanganlikni ta'minlash;

belgilangan ishlab chiqarish dasturini maksimal samaradorlik bilan bajarish, mustahkam ozuqa bazasini yaratish, kapital yuklamalar, mehnat resurslari, pul-moddiy vositalar samaradorligini oshirish, umuman korxona qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining raqobatbardoshligi va rentabelligini yaxshilash imkonini beradigan yerning unumdorlik va hududiy xususiyatlarini, xo'jalik yuritishning iqtisodiy sharoitlarini, yer egaliklari va yerdan foydalanishlarning ayrim qismlarining tabiiy

xususiyatlarini hisobga olgan holda, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining tarmoqlari tarkibini, o'lchamlari va joylashishini belgilash;

dehqonchilik madaniyatini ko'tarishga, qishloq xo'jalik texnikasidan yuqori unumli foydalanishga, xo'jalik yuritishning ilg'or tizimlarini, ekinlarni etishtirish texnologiyalarini, mehnatni ilmiy tashkil etish va qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini boshqarishni joriy etishga, dehqonchilikda ishchi jarayonlarni to'g'ri amalga oshirishga yordam beruvchi tashkiliy-hududiy sharoitlar yaratish;

yerlarni melioratsiyalash, atrof muhitni muhofaza qilish, tabiatda ekologik muvozanatni saqlash, madaniy landshaftlar yaratish bo'yicha tadbirlar majmuini ishlab chiqish va joriy etish;

har bir yer bo'lagining maydonini, sifatini va joylashgan o'rnini hisobga olib, xo'jalikda ichki yer munosabatlarini, ichki rejalash va boshqarishni, boshqa masalalarni echishni tartibga solish uchun zarur yer baholash me'yorlari tizimini ishlab chiqish.

Xo'jalikda ichki yer tuzishning maqsadi va vazifalari uning mazmunini va loyihani ishlash tartibini aniqlaydi.

II.2. Loyihaning mazmuni

Xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasi aniq qishloq xo'jalik korxonasida yerlardan va ular bilan bog'liq ishlab chiqarish vositalaridan oqilona foydalanishni va ularni muhofaza qilishni tashkil etish bo'yicha hujjatlar (hisob-kitoblar, chizmalar) to'plamidan iborat bo'ladi.

Xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasining tarkibi va mazmuni tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar, yer egaliklari va yerdan foydalanishlar shakllari, hududning tashkil etilish va oldin ishlangan loyiha echimlarining o'zlashtirilish darajasidan kelib chiqib aniqlanadi. Biroq, barcha vaziyatlarda ham xo'jalikda ichki yer tuzishda loyihaning tarkibiy qismlari va elementlaridan kelib chiqib aniqlanadigan loyihaviy masalalarning to'la ro'yxati ko'rib chiqilishi kiyerak. Loyihaning tarkibiy qismlari va elementlari ro'yxati qishloq xo'jalik korxonasi ishlab chiqarishi va hududining hamda xo'jalikning ayrim darajalari va tarkibining o'zaro aloqalarini hisobga olishi kiyerak.

Xo`jalikda ichki yer tuzish loyihasining tarkibiy qismlarini belgilashda quyidagi qoidalardan kelib chiqish kyerak.

Agar har bir qishloq xo`jalik korxonasida ishlab chiqarish jarayonini (tizimini) bosqichlarga (tarkibiy tashkil etuvchilar, darajalar, ichki tizimlar) bo`lsak, u ishlab chiqarish tarmoqlari va ayrim ishlab chiqarish jarayonlaridan iborat bo`ladi.

Ijtimoiy zarur mahsulotni ishlab chiqarish vaqti qishloq xo`jalik korxonasida takror ishlab chiqarish vaqti (davri) bilan mos tushadi va o`z ichiga uning barcha bosqichlarini (ishlab chiqarishning o`zi, taqsimot, ayir-boshlash, iste`mol) oladi. Ishlab chiqarish tarmoqlari faoliyati natijasida mahsulot yaratiladi, uni ishlab chiqarish vaqti tayyor mahsulot olish uchun zarur tarmoq-larning ish davri bilan mos keladi. Ayrim ishlab chiqarish jarayonlarini bajarish aniq mahsulot ishlab chiqarish bilan bog`langan va qishloq xo`jaligining xususiyatlaridan kelib chiqadi, unda ishlab chiqarish jarayonlari va bevosita mehnat bir-biriga to`g`ri kelmaydi.

Ishlab chiqarishning har bir bosqichiga o`zining yer - xo`jalik tuzilish shakli mos keladi: umuman ishlab chiqarishga - xo`jalik yer egaligi; tarmoqlar yoki ular yig`indisiga - ishlab chiqarish bo`limining yer massivi yoki almashlab ekish massivi; ayrim ishlab chiqarish jarayoniga yoki ular guruhiga - dala, ishchi (sug`orish) uchastkasi va sh.o`. (7 jadval).

7 jadval

**Ishlab chiqarish bosqichlari va xo`jalikda ichki yer tuzish loyihasi
qismlarining o`zaro aloqalari**

Ishlab chiqarish bosqichlari	Ishlab chiqarishning maqsadi	Ishlab chiqarish vaqti	Hududni tashkil etish shakli	Yerning asosiy vazifasi	Xo`jalikda ichki yer tuzish loyihasining qismi
To`la (umuman) ishlab chiqarish	Ijtimoiy zarur mahsulotni ishlab chiqarish	Takror ishlab chiqarish davri	Yer egaligi, yerdan foydalanish, ish-	Poydevor, operatsion-kenglik, asos	Ishlab chiqarish bo`limlarini va xo`jalik markaz-larini joylash-tirish. Xo`jalik-

h		(ishlab chiqarish, taqsimot, ayir-boshlash, iste'mol)	lab chiqarish bo'limi yer massivi		da ichki magistral yo'llarni, suv xo'jaligi va boshqa umumxo'jalik aha-miyatiga ega inženýerlik inshootla-rini va ob'ektla-rini joylashtirish
Xo'jalik tarmoqlari	Xo'jalik tarmoqlarida (dehqonchilik, bog'dorchilik va boshq.) tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish.	Tarmoqning ishchi davri (ishlab chiqarishning o'z davri)	Almashlab ekish, yaylov almashish, pichanzoralmashish, bog', brigada uchastkasi	Asosiy ishlab chiqarish vositasi (bir vaqtning o'zida mehnat quroli va predme-ti)	Yer turlarini va almashlab ekishni tashkil etish.
Ayrim ishlab chiqarish operatsiyasi	Ishlab chiqarish operatsiyasini bajarish	Operatsiya uchun ishchi vaqt (mehnat jarayoni)	Dala, ishchi uchastkasi, pichanzoralmashish, mollarni navbat bilan boqish uchastkalari	Mehnat predmeti	Almashlab ekish hududini tuzish. Bog'uzumzorlar hududini tuzish. YAylovlar hududini tuzish. Pichanzorlar hududini tuzish.

Ishlab chiqarish bosqichlari o'zlariga mos ishlab chiqarish va ijtimoiy infratizimni, yer bilan ajralmas bog'liq ishlab chiqarish vositalarini ham aniqlaydi. Boshqa tomondan, infratizimning ayrim elementlari ishlab chiqarishning har xil bosqichlariga

xosdir. Masalan, sug'orish sharoitida xo'jalikka suv ajratiladi, uni olish va tarqatish uchun suvni ajratib oluvchi insho-otlar, umumxo'jalik magistral kanallari, suvni tashlovchi tarmoqlar xizmat qiladi. Har bir brigadaga (ayrim ishlab chiqarish bo'limiga) suv ajratib oladigan joy va suv hajmi belgilanadi, brigada yer massivi, sug'orma almashlab ekishlar esa guruh ariqlaridan sug'oriladi.

Dalalarda, sug'orish uchastkalarini sug'orish uchun uchastka ariqlaridan, o'q ariqlar va egatlardan foydalaniladi.

Bu aytilgan tartib yo'l tarmoqlariga va boshqa infra-tizim elementlariga ham taalluqlidir. Masalan, butun xo'-jalikka xizmat ko'rsatish uchun qishloq xo'jalik korxona-sining markaziy qishlog'ini qishloq xo'jalik mahsulot-larini topshirish joylari, brigadalar qishloqlari, ishlab chiqarish markazlari bilan bog'lovchi magistral yo'l tarmoqlaridan foydalaniladi. Asosiy yo'llar brigadalar xo'jalik markazlarini o'zaro, fyermalar, qishloq xo'jalik yerlari, almashlab ekish massivlari bilan ham bog'laydi.

Dala yo'llari tarmog'i avtomashinalar, qishloq xo'jalik texnikasining dala ishlarini bajarishda, daraxtzorlarga ishlov byerishda, pichanzorlarda va sh.o'. harakatlanishlari uchun mo'ljallangan.

Xo'jalikning ijtimoiy infratizimi elementlariga umumxo'jalik hovlilari; ishlab chiqarish bo'limlarinikiga esa - brigada hovlilari, fyermalar, dala shiyponlari kiradi.

Shu tarzda, xo'jalikda ichki yer tuzishda xo'jalikning, uning tarmoqlarining hududiy tashkil etilishi va ishlab chiqarishi joylashtirilishi, hamda uch darajaning har biri infratizimi elementlarini joylashtirish bilan ishlab chiqarish jarayonlarini hududiy tashkil etish amalga oshiriladi.

8 jadval

Qishloq xo'jalik korxonasida xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasining tarkibiy qismlari va elementlari.

Tarkibiy qismlar	Elementlar
1	2
1 Ishlab chiqarish bo'limlari va xo'jalik	1.1 Xo'jalikning tashkiliy ishlab chiqa-rish tuzulishini, ishlab chiqarish bo'lim-lari tarkibini, sonini va

markazlarini joylashtirish	o`lchamlarini belgilash</p> <p>1.2 Xo`jalik markazlarini joylashtirish 1.3 Ishlab chiqarish bo`limlari yer massivlarini joylashtirish
2. Xo`jalikda ichki magistral yo`llarni, suv xo`jaligi va boshqa umumxo`jalik ahamiyatiga ega injenyerlik inshootlari va ob`ektlarini joylashti-rish	2.1 Xo`jalikda ichki magistral yo`llarni joylashtirish 2.2 Suv xo`jaligi va boshqa umumxo`jalik ahamiyatiga ega injenyerlik inshootlari va ob`ektlarini joylashtirish
3. Yer turlarini va almashlab ekishlarni tashkil etish	3.1 Yer turlarining tarkibini va nisba-tini (tuzilishini), ulardan foydalanish tartibi va sharoitlarini belgilash 3.2 Yer turlarini transformatsiyalash, yaxshilash va joylashtirish 3.3 Almashlab ekish tizimini tashkil etish (almashlab ekishlarning tiplari, turlari, soni, o`lchamlarini belgilash va ularni joylashtirish)
4. Almashlab ekishlar hududlarini tashkil etish	4.1. Almashlab ekish dalalarini va ishchi (sug`orish) uchastkalarini joylashtirish</p> <p>4.2 Ihota darahklarini joylashtirish</p> <p>4.3 Dala yo`llarini joylashtirish 4.4 Dala shiyponlarini va dala suv ta`minoti manbaalarini joylashtirish 4.5 Brigada uchastkalarini joylashtirish
5. Meva-rezavor daraxt-zorlari hududlarini tashkil etish	5.1. Mevali daraxtzorlar turlari va navlarini joylashtirish 5.2 Kvartallar va brigada uchastkalarini (uzumzorlarda-kataklarni) joylashtirish 5.3 YOrdamchi xo`jalik markazlarini joylashtirish</p> <p>5.4 Yo`l tarmog`ini joylashtirish

	5.5 Ihota daraxtlari polosalarini
--	-----------------------------------

8 jadvalning davomi

1	2
	joylashtirish 5.6 Suv inshootlarini va sug'orish tarmog'ini joylashtirish 5.7 Rezavorzorlar hududini tashkil etish 5.8 Meva va uzum ko'chatxonalarini joylashtirish va ularning hududini tashkil etish
6. YAylovlar hududini tashkil etish	6.1 YAylovlarni chorvachilik fyermalariga biriktirish 6.2 YAylov almashishlarini tashkil etish 6.3 Poda va o'tarlar uchastkalarini joylashtirish 6.4 Navbat bilan mol boqiladigan uchastkalarni joylashtirish 6.5 YOzgi lagyerlarni joylashtirish 6.6 Suv manbaalari va mollarni sug'orish joylarini joylashtirish 6.7 Mollar haydaladigan yo'llarni joylashtirish
7. Pichanzorlar hududini tashkil etish	7.1 Pichanzoralmashishni tashkil etish, pichanzoralmashish va brigada uchastkalarini joylashtirish 7.2 Dala shiyponlarini joylashtirish 7.3 Yo'l tarmog'ini joylashtirish 7.4 Suv manbaalarini joylashtirish

7 jadvaldan ko'rinib turibdiki, yer to'la (umuman) ishlab chiqarish uchun kenglik, operatsion bazis sifatida, xo'jalik tarmoqlari uchun asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida, ayrim ishlab chiqarish operatsiyalari uchun esa - mehnat predmeti sifatida xizmat qiladi.

Xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasi ettita tarkibiy qism va 32 elementdan iborat (8 jadvalga qaralsin)

I. Ishlab chiqarish bo'limlarini va xo'jalik mar-kazlarini joylashtirish.

Loyihaning bu qismida xo'jalikning tashkiliy-ishlab chiqarish tuzilishi, ishlab chiqarish bo'limlarining tarkibi, soni va o'lchamlari belgilanadi, xo'jalik markazlarining vazifalari aniqlanadi, chorvachilik fyermalari joylashtiriladi, xo'jalikning ichki hududiy ishlab chiqarish bo'limlarining (bo'limlar, ishlab chiqarish uchastkalari, tsexlar, kompleks brigadalar) maydonlari, chegaralari va joylashishi aniqlanadi. Bu masalalarning to'g'ri echilishi ishlab chiqarish qurilishiga, hududni injenyerlik jihozlashga sarflanadigan kapital xarajatlarning kamayishiga, hamda ma'muriy-boshqaruv hodimlarining ish haqi, amortizatsiya va ekspluatatsiya sarflari, transport xarajatlari bilan bog'liq ishlab chiqarishning yillik xarajatlarining kamayishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

II. Xo'jalikda ichki magistral yo'llarni, suv xo'ja-ligi va boshqa umumxo'jalik ahamiyatiga ega injenyerlik inshootlarini va ob'ektlarini joylashtirish. Nazariy jihatdan bu qism - loyihaning birinchi qismi elemen-tidir, sababi, butun xo'jalik infratizimi masalalarini echadi, ammo, echiladigan masalalarning ahamiyatini va ularning yer turlarini va almashlab ekishlarni tashkil etish bilan o'zaro bog'liqligini hisobga olgan holda, ular mustaqil tarkibiy qism qilib bo'linadi.

Xo'jalikning yo'l tarmog'i - ishlab chiqarishni va hududni oqilona tashkil etishning asosiy shartidir, sababi, u aholi yashash joylari, ishlab chiqarish markazlari va xo'jalik yer turlari orasidagi transport aloqalarini yaxshilashga, odamlarni va yuklarni tashish xarajatlarini kamaytirishga, mahsulot tannarxini pasaytirishga yordam byeradi. Bu boshqa, ularsiz ishlab chiqarishni amalga oshirish mumkin bo'lmagan ishlab chiqarish infratizimi ob'ektlariga (suv bilan ta'minlash tizimi, elektr ta'minoti, aloqa) ham taalluqlidir.

III. Yer turlarini va almashlab ekishlarni tashkil etish. Loyihaning bu qismi yerning ishlab chiqarish (unum-dorlik, namlanish, yeroziyaga uchrash, madaniylashish dara-jasi) va hududiy (joylashgan o'rni, shakli, xo'jalik mar-kazlaridan uzoqligi) xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Yer turlarining iqtisodiy va ekologik balanslangan tarkibi belgilanadi, chegaralar

aniqlanadi va mahsus tabiatni muhofaza qilish, rekreatsion va qo`riq-xona rejimidagi hududlardan foydalanish tizimi loyiha-lanadi, yer turlarini transformatsiyalash masalalari echi-ladi; melioratsiya va tabiatni muhofaza qilish tadbirlari ishlanadi, tadbirlarni amalga oshirishning ustivor yo`na-lishlari, hajmlari, qiymati, samaradorligi va navbat-lari aniqlanadi.

Almashlab ekishlar tizimini tashkil etish hamma vaqt ham xo`jalikda ichki yer tuzishning asosi hisoblangan, sababi, haydalma yerlar eng qimmatbaho qishloq xo`jalik yerlari hisoblanadi va ko`plab turdagi oziq-ovqat, texnika va em-xashak ekinlarini o`stirish uchun mo`ljallanadi. Loyihani tuzishda almashlab ekishlarning tiplari, turlari, soni, o`lchamlari va joylashishi belgilanadi.

IV. Almashlab ekishlar hududini tashkil etish. Xo`jalikda ichki yer tuzishda nafaqat xo`jalikda yer turla-rining eng yaxshi tarkibini va maydonini aniqlash, ular-ni yanada yaxshilash bo`yicha tadbirlarni ishlash, balki, har bir almashlab ekish, qishloq xo`jalik yeri, ulardan oqi-lona va samarali foydalanishni tashkil etish, ishlab chi-qarish jarayonlarini amalga oshirish maqsadida yer uchast-kasining hududini ichki tuzish ahamiyatga ega. Loyihaning bu tarkibiy qismida almashlab ekish dalalari va sug`orish (ishchi) uchastkalarini, ihota daraxtlari polosalarini, yo`llarni, dala shiyponlarini, brigada uchastkalarini va dala suv ta`minoti manbaalarini joylashtirish belgilanadi.

V. Meva-rezavor daraxtlari hududlarini tashkil etish. Bunda meva-rezavor daraxtlarining turlari va nav-larini, kvartallarni, brigada uchastkalarini, kataklarni, yordamchi ho`jalik markazlarini, himoya o`rmon polosala-rini, suv inshootlarini va sug`orish tarmog`ini joylash-tirish, hamda rezavorlar, meva va rezavor ko`chatxonalarini joylashtirish va hududlarini tuzish masalalari ko`riladi. Bog`lar, uzumzorlar, rezavorzorlar va meva ko`chatxonalari hududlarini tashkil etish mahsulot ishlab chiqarishning ko`payishiga yordamlashadi, daraxtzorlarni yaratish uchun qilinadigan kapital xarajatlar samaradorligini oshiradi, ularga qarash va ishlov byerish, hosilni yig`ib olish uchun qilinadigan xarajatlarni kamaytiradi.

VI. YAylovlar hududini tashkil etish. YAylovlar hududini tashkil etishda ularni chorvachilik majmualariga, fyermalariga, mollar podalariga biriktirish amalga

oshiriladi, yaylov almashishlar tashkil etiladi, poda va curuv uchastkalari, navbat bilan o'tlatiladigan uchastkalar, yozgi lagyerlar, suv manbaalari va sug'orish joylari, poda yo'llari joylashtiriladi. Tabiiy yaylovlar hududlarini to'g'ri tashkil etish, ulardan foydalanishning ularni yaxshilash, yaylov almashishlarni joriy etish, navbat bilan o'tlatiladigan maydonlarda mollarni oqilona boqish, hay-vonlarni yaylovga va orqaga fyermaga haydash masofasini va vaqtini qisqartirish hisobiga samaradorligini oshirishga yordam qiladi. Sug'oriladigan madaniy yaylovlar hududini tashkil etishda suv manbaasi, sug'orish usullari va sh.o'. to'g'risidagi masalalar echiladi.

VII. Pichanzorlar hududini tashkil etish. Pichanzorlar ma'lum mehnat jamoalariga (brigadalarga) biriktiriladi, pichanzor almashishlar belgilanadi, pichanzor va brigada uchastkalarini, dala shiyponlarini, yo'l tarmoqlarini, suv mabaalarini joylashtirish bajariladi. Pichanzorlar maydonlarini oqilona tashkil etish ularning mahsuldorligi oshishiga, o'tlarning yaxshilanishiga, texnikadan yuqori unum bilan foydalanishga, mehnatni to'g'ri tashkil etishga yordam byeradi.

Loyihaning har bir tarkibiy qismiga o'zining aniqlangan maqsadiga va o'zaro bog'langan masalalariga ega loyihaviy vazifalar xosdir; uning har bir elementini loyiha planida grafik tarzda ko'rsatish yoki joyda maxkamlash mumkin. Loyihaning tarkibiy qismlari mazmuni ishlab chiqarishni hududiy tashkil etishning ma'lum bosqichiga (darajasiga) mos tushadi.

Butun xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasini ishlash yagona kompleks vazifa bo'lib, umumiylikdan xususiylikka asta-sekin o'tish va keyinchalik oldingi loyihaviy echimlarga aniqlik kiritish yo'li bilan o'tkaziladi.

Shuni esdan chiqarmaslik kyerakki, xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasining qismlari ma'suliyati va iqtisodiy ahamiyati bo'yicha bir xil emas. YAna Shuni hisobga olish kyerakki, loyihaviy vazifalar va loyihaning tarkibiy qismlari har xil tabiiy va iqtisodiy sharoitlarda bir-birlaridan farq qiladi.

Loyihaning ko'p xo'jaliklar uchun eng ahamiyatli qismi ishlab chiqarish bo'limlarini va xo'jalik markaz-larini joylashtirish hisoblanadi. U xo'jalikning ichki ixtisoslashishini, tashkiliy-ishlab chiqarish tuzulishini, xo'jalikda ichki yer munosabatlarini aniqlaydi, yer tuzi-layotgan xo'jalikning barcha tarmoqlari

rivojlanishiga va samarali faoliyat ko'rsatishiga, yerlardan foydalanishga, ishlab chiqarishni, mehnatni va boshqarishni tashkil etishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Loyihaning juda ahamiyatli qismi yer turlarini va almashlab ekishni tashkil etish hisoblanadi, sababi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligi o'sishini ta'minlovchi yerdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish, tuproqlar unumdorligini kengaytirilgan qayta tiklash tizimi - har qanday korxonaning raqobatbardoshligi garovidir.

Xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasining tarkibi va mazmuni quyidagi omillarga bog'liq:

- xo'jalikning turi va o'lchamlari;
- ixtisoslik va boshqa iqtisodiy sharoitlar;
- hududning tabiiy xususiyatlari.

Yirik qishloq xo'jalik korxonalari (davlat xo'ja-liklari, hissadorlik jamiyatlari, jamoa xo'jaliklari, qishloq xo'jalik shirkatlari va boshq.), asosan, ko'p tarmoqli hisoblanadi, yer turlarining katta maydonlariga va har xil tarkibiga ega bo'ladi va xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasini to'la dasturda ishlashni talab etadi.

Fyermyer (dehqon) xo'jaliklarida, kichik korxonalarda xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasi soddaroq bo'lishi va asosan yer turlarini, almashlab ekishni tashkil etish va ular hududlarini tuzish masalalarini echishi mumkin.

Agrosanoat majmualari yoki sanoat ishlab chiqarishining (qand, vino, spirt, kraxmal va boshq.) xom ashyo mintaqasi tarkibiga kiruvchi xo'jaliklar, asosan, yuqori ixtisoslashgan bo'lishadi, Shu sababli bunday korxonalarda xo'jalikda ichki yer tuzishda, ishlab chiqarishni oqilona joylashtirish, yer turlarini to'g'ri tashkil etish, daraxtlarni ekish, maxsus almashlab ekishlarni joriy etish va o'zlashtirish, dehqonchilik madaniyatini oshirish yo'li bilan etakchi tarmoqlarni rivojlantirish uchun eng yaxshi tashkiliy-hududiy sharoit yaratiladi.

CHorvachilik mahsulotlarini etishtirishga ixtisos-lashgan qishloq xo'jalik korxonalarida xo'jalikda ichki yer tuzishda mustahkam ozuqa bazasini yaratishga, yuqori unumli mashinalarni, ishlab chiqarishda ozuqalarni tayyor-lash va saqlashning

ilg'or texnologiyalarini qo'llashga, qayta ishlovchi sanoat chiqindilaridan oqilona foydalanishga sharoitlar yaratishga ayriqcha e'tibor beriladi.

Yirik chorvachilik majmualari bor xo'jaliklarda loyihaning asosiy mazmuni yer turlari va almashlab ekishlarni oqilona tashkil etish va ular hududlarini tuzishdan, dehqonchilik sug'orish dalalarini (oqava suvlari bilan sug'oriladigan) joylashtirishdan, ozuqa olinadigan yer turlarini yaxshilashdan iborat bo'ladi.

Tuproqlarning suv yeroziyasi va shamol deflyatsiyasi kuzatiladigan mintaqalarda xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasi yeroziyaga qarshi xaraktyerga ega bo'ladi; katta meliorativ resurslarga ega mintaqalarda - atrof muhitda salbiy ekologik o'zgarishlar keltirib chiqarmaydigan yer tuzish, melioratsiya va madaniy-texnik tadbirlarni bog'lash ko'zda tutiladi; yer turlari tarkib topgan mintaqalarda - ulardan foydalanish samaradorligini oshirishga, ayniqsa haydalma yerlarning, yordam qiladi.

3. Loyihani ishlash tartibi va usullari

Xo'jalikda ichki yer tuzishni qishloq xo'jalik korxonalariga birlashtirilgan, jamoa, dehqon xo'jaliklari, birlashmalar yerlarida va yerga va boshqa ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan mulkchilik turlaridan qat'iy nazar boshqa qishloq xo'jaligi bilan Shug'ullanuvchi korxonalar mulkchiligida, egaligida, uzoq muddatli foydalanishida bo'lgan yerlarni ham qo'shib, barcha yerlarda o'tkaziladi.

Qishloq xo'jalik korxonalarida xo'jalikda ichki yer tuzish tuman yer tuzish chizmalari bilan yagona texnologik bog'liqlikda o'tkaziladi. Zarur hollarda undan oldin yangi yer egaliklarini va yerdan foydalanishlarni tashkil etish va mavjudlarini tartibga solish bilan bog'liq xo'jaliklararo yer tuzish o'tkaziladi. Xo'jaliklararo aloqalarni, kooperatsiyani, agrosanoat integratsiyasini rivojlantirish uchun xo'jaliklarda ichki yer tuzish o'zaro yagona ishlab chiqarish vazifalari yoki tsikllari bilan bog'langan barcha qishloq xo'jalik korxonalarida bir vaqtda o'tkazilishi mumkin.

Xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasi yaxshi sifatli, yerning rel'efi tushirilgan plan-xarita matyerialida, oldingi yer tuzish, yerlarni xo'jalikda ichki baholash, tuproq, geobotanika, agrokimyo va boshqa turdagi izlanishlar va qidiruvlar matyeriallaridan

foydalanib, tuziladi. Bunday matyeriallar yo`q bo`lsa, loyihani tuzishgacha zarur izlanish va qidiruvlar o`tkaziladi yoki bor ma`lumotlar tuzatiladi.

Loyiha oldi ishlari (tuman yer tuzish, yerlarni qayta taqsimlash, yo`l tarmog`ini joylashtirish chizmalari, tex-nik-iqtisodiy asoslash va hisob-kitoblar va boshq.) xo`jaliklararo yer tuzish, melioratsiya, agroo`rmon melioratsiyasi, qishloq aholi yashash joylarini rejalash va qurish ma`lumotlaridan, yerlarni qishloq ma`muriyati ixtiyoriga byerish va boshq. matyeriallaridan ham foydalaniladi.

Xo`jalikda ichki yer tuzish loyihasini ishlash uchun plan-xarita matyeriallarining masshtabi yer egaliklari va yerdan foydalanishlar o`lchamlariga, shakliga, yer turlarining bo`laklarga bo`linishiga va bir-birlaridan ajralishiga, konturliligiga, rel`efning murakkabligiga, yerlarning meliorativ ahvoliga va ulardan foydalanishning intensivligiga bog`liq bo`ladi. Mamlakat mintaqalari bo`yicha har xil masshtabdagi - 1:10000 dan 1:50000 gacha, planlardan foydalaniladi.

Sug`orma dehqonchilik, intensiv bog`dorchilik va uzumchilik hududlarida yirik 1:5000 va 1:10000 masshtablardagi planlardan foydalaniladi; yer turlarining mayda konturliligi sharoitida - asosan, 1:10000; katta haydalma yer massivlariga ega cho`l mintaqalarida va jamoa xo`jaliklarida - 1:25000; sahro va yarim sahro mintaqalaridagi chorvachilik xo`jaliklarida - 1:50000 masshtabli planlardan foydalaniladi.

Loyihalashning boshida echish zarur bo`lgan ahamiyatli masala hisoblangan (loyihaviy mo`ljallangan) davrni aniqlash hisoblanadi.

Xo`jalikda ichki yer tuzish loyihalari ikki muddatga ishlanadi: hisoblangan, xo`jalikning loyihada ko`zda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish bo`yicha real imkoniyatlardan kelib chiqadigan va bashoratlangan (istiqboldagi), bu davrda xo`jalik yerlarining potentsial mahsuldorligidan iloji boricha maksimal foydalanish, qishloq xo`jalik foydalanishiga yerlarni tortish bo`yicha choralar nazarda tutiladi.

Hisoblangan (loyihada mo`ljallangan) davr - unda xo`jalikda ichki yer tuzish loyihasida ko`zlangan barcha echimlar amalga oshirilgan bo`lishi kyerak va uning oxirida qishloq xo`jalik korxonasi loyihada belgilangan rivojlanishning va yerdan foydalanishning texnik-iqtisodiy ko`rsatkichlariga chiqishi zarur.

CHegaralarga ega loyiha elementlari (almashlab ekish dalalari, ishchi uchastkalar, brigadalar yer massivlari, dala yo'llari va boshq.) loyihani amalga oshirishning birinchi yilidayoq o'zlashtirilishini hisobga olib, almashlab ekishlar - ularning rotatsiyasi davrida, yaylov va pichanzorlar - to'laqonli sun'iy o'tlar qatlamining yaratilishi davrida, daraxtzorlar - mevalash davrining boshlanishigacha bo'lgan davrda o'zlashtiriladi, loyihada bu davr o'rtacha besh yilga teng deb qabul qilinadi.

Bashoratlash (istiqbol) davri, asosan, 15 yilga teng.

Loyihaning asosiy ko'rsatkichlari o'zlashtirishning birinchi yiliga, hisoblangan (loyihaviy) va istiqboldagi davrlarga keltiriladi.

Xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasini ishlashning ikkita asosiy yo'li mavjud:

an'anaviy, byerilgan nazorat sonlaridan kelib chiqib, hududiy tashkil etishni texnik-iqtisodiy asoslash tamoyili bo'yicha amalga oshiriladigan;

resursli, xo'jalik yerlarining potentsial mahsuldorligini, uning mehnat va pul-moddiy resurslar bilan ta'minlanganligini hisobga oluvchi.

Rejali iqtisodiyot sharoitida ko'p foydalaniladigan an'anaviy usulda, xo'jalikka qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish rejasi (davlat buyurtmasi, nazorat sonlari) tushiriladi. Bunda xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasiga rejani yerga «bog'lash» imkonini byeradigan asbob sifatida qaraladi.

Bunday vaziyatda loyihalash usuli agroiqtisodiy hisob-kitoblarni o'zaro kelishtirilgan holda o'tkazishdan va loyihaviy yer tuzish masalalarini loyihaning tarkibiy qismlari va elementlari bo'yicha echishdan iborat bo'ladi (15 rasm).

Loyihaviy masalalarni echishning taxminiy tartibi quyidagidek:

1. Ishlab chiqarish bo'limlari va markazlarining, ozuqa olinadigan yerlarning ko'zlanayotgan soni, o'lchamlari va joylashishi, xodimlarning rejalashtirilgan yashash joylari asosida byerilgan mollarning bosh sonini ishlab chiqarish bo'limlari va fyermalar bo'yicha, ularning optimal o'lchamlariga yaqin qilib taqsimlash amalga oshiriladi.

2. Xo'jalikning ishlab chiqarish bo'limlari (bo'limlar, ishlab chiqarish uchastkalari, brigadalar) va fyermalari bo'yicha chorva mollarining ozuqaga bo'lgan

talabi, yashil konveyyer, haydalma yerlarda ekiladigan ozuqa ekinlari maydoni hisoblanadi. Bunda yashil konveyyer chizmasini tuzishda yerlarning transformatsiyalanishini hisobga olib aniqlangan ozuqa olinadigan yerlarning loyihaviy maydoni hisobga olinadi.

3. Loyihada aniqlangan yerlarning tarkibi va maydonlari, ularni transformatsiyalash va yaxshilash asosida haydalma yerlarining barcha uchastkalari maydoni va joylashishi belgilanadi. Ozuqa ekinlarining oldin hisoblangan maydonlarini, donli, boshqa oziq-ovqat va texnika ekinlari maydonlarining rejalashtirilgan tarkibini, ularning almashish tartibini, hududning tabiiy xususiyatlarini va aholi tizimini hisobga olib, xo`jalikda almashlab ekish tizimi loyihalalanadi.

4. Almashlab ekishlar, meva-rezavor daraxtzorlari va ozuqa olinadigan yerlar hududlarida ichki yer tuzish amalga oshiriladi.

5. Xo`jalikning barcha maydonlarini, dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni va taqsimlashni, ozuqa balansini va boshq. hisoblash uchun asos bo`lib xizmat qiladigan, yer turlarining loyihaviy eksplikatsiyasi tuziladi.

6. Loyihaning samaradorligini, asosiy va aylanma fondlarga, mehnat resurslariga, kapital yuklamalarga bo`lgan talabni hisoblash amalga oshiriladi, loyihani amalga oshirish rejasi tuziladi.

An`anaviy usulda tuzilgan xo`jalikda ichki yer tuzish loyihasi xo`jalikning ishlab chiqarish dasturini texnik-iqtisodiy asoslashdan iborat bo`ladi. Bu dastur faqat kyerakli resurslar (kapital yuklamalar, mehnat resurslari, texnika, ma`danli o`g`itlar va boshq.) jalb qilingandan keyin bajarilishi mumkin. Aynan Shu bilan, bunday loyihadagi ko`plab tadbirlarning (yerlarni transforma-tsiyalash, ishlab chiqarish, suv xo`jaligi, yo`l qurilishlari, tuproqlarni melioratsiyalash, daraxtzorlarni barpo etish va boshq.) chizma darajasida ishlanishini ta`minlash mumkin. Bunday loyiha faqat u zarur resurslar bilan ta`minlangandagina amalga oshirilishi mumkin.

Loyihalashning an`anaviy usuli davlat qishloq xo`jalik korxonalarida, urug`chilik, elita, naslchilik, o`quv-tajriba xo`jaliklarida, sanoat korxonalarining yordamchi xo`jaliklarida, ya`ni, ishlab chiqarishning nazorat sonlarini davlatdan

oladigan va bu sonlardan kelib chiqadigan pul-moddiy, mehnat va boshqa resurslarni ham davlat yoki boshqa buyurtmachi tomonidan oladigan xo'jaliklarda xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasini ishlashda foydalanilishi mumkin. Mazkur usul yerlar o'zlashtirilayotgan, aholi ko'chirilayotgan va sh.o'. tumanlarda ham keng qo'llanilishi mumkin.

To'la mustaqillikda, o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash va o'z xarajatlarini o'zi qoplashda korxonalarda, bir tomondan, yerdan maksimal intensiv foydalanish, ikkinchi tomondan esa - yer resurslarini kuchsizlanishdan, buzilishdan, yeroziyadan saqlash iqtisodiy manfaati paydo bo'ladi. Bunday vaziyatda loyihalashning resurs usulidan foydalaniladi.

Resurs usulida loyihaviy masalalarni echish tartibi.

1. Xo'jalik yer turlarining tabiiy salohiyati bioiqlimiy, agroekologik baholanadi, bozor kon'yunkturasi o'rganiladi va Shu asosda mazkur qishloq xo'jalik korxonasida qanday mahsulotni va qanday hajmda ishlab chiqarish maqsadga muvofiqligi aniqlanadi.


2. Korxonaning real ishlab chiqarish dasturi tuziladi, u mavjud resurslar bilan tasdiqlanishi va xo'jalikda kengaytirilgan

takror ishlab chiqarishni, maksimal foyda olishni va tuproqlar unumdorligining to'xtovsiz oshib borishini ta'minlashi kerak.

3. O'zlashtirish, transformatsiyalash va yaxshilash uchun, faqat korxonaning o'zining va jalb etilgan pul-moddiy va mehnat resurslari bilan ta'minlanadigan, yer uchastkalari belgilanadi. Shuni hisobga olgan holda qishloq xo'jalik korxonasi hududi tashkil etiladi.

4. Loyiha bo'yicha yerlarning buzilishi, hududning ekologik turg'unligi buzilishi xavfi tug'ilgan uchastka-lardan foydalanish intensivligini pasaytirish nazarda tutiladi.

Loyihalash uchun topshiriq
Xo'jalikning ixtisosligi va tashkiliy ishlab chiqarish tuzilishi
Ishlab chiqarish hajmi va mahsulot sotish rejasi
Qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligi va yer turlari mahsuldorligi



1 rasm. Loyihalashning an`anaviy usulida xo`jalikda ichki yer tuzish loyihasini ishlash.

Bu masalalar loyihalashning maqsadli dasturlash usulidan foydalanib, ikki bosqichda echiladi (9 jadval).

Qishloq xo'jalik korxonalari va ularning yer egaliklari juda murakkab ob'ektlar ekanligini hisobga olib, loyihalash xo'jalikning istiqboldagi (bashoratlash davri) hududini tashkil etish chizmasining asosiy loyihaviy echimlarini ishlashdan boshlanadi.

Istiqbolda xo'jalik hududini tashkil etish chizmasini xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasi tarkibiga kiritishadi, u ikki bosqichda ishlanadi: xo'jalik yerlaridan oqilona foydalanishni tashkil etish bo'yicha tadbirlar qiymatining smeta hisob-kitoblari bilan loyiha va birinchi navbatda o'zlashtiriladigan yerlar va quriladigan injenyerlik inshootlariga smetalar va texnik chizmalardan iborat ishchi hujjatlar.

CHizmadan farqli o'laroq, xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasining vazifasi yerlardan foydalanishning Shunday tizimini (birinchi navbatdagi tadbirlar) tanlashdan iboratki, u real mumkin bo'lgan, hozirgi vaqtda resurslar bi-lan ta'minlangan va xo'jalik iqtisodiyotini rivojlan-tirish va uning yerlarining tabiiy salohiyati nuqtai naza-ridan eng samarali bo'lishi kyerak. Bunday vaziyatda mahsu-lot ishlab chiqarish rejasi yerdan olinadi, xo'jalikdagi real iqtisodiy vaziyatni hisobga oladi, dastur-maqсадli xaraktyerga ega va resurslar bilan ta'minlangan bo'ladi.

9 jadval

Loyihalashning resursli usuli

Loyihani ish-lash bosqich-lari	Loyihalashning mazmuni
1	2
Xo'jalik hududini tashkil etishning istiqboldagi chizmasi (basho-	Yerlarning bioiqlimiy salohiyatini aniqlash. Yer turlari tarkibini va maydonlarini belgilash. Meliorativ fondni baholash. Yerlarni yaxshilash, transformatsiyalash, qishloq xo'ja-ligi uchun o'zlashtirish ob'ektlarini aniqlash. Yerlarni o'zlashtirish navbatini va me'yorlarini

ratlash davri)	belgilash. Yerlarni agroekologik klassifikatsiyalash va ularni foydalanish intensivligi darajasi, qishloq xo`jalik ekinlari turlari va etishtirish texnologiyalari bo`yicha baholash. Qishloq xo`jalik ekinlarining potentsial hosil-dorligini va yer turlari mahsuldorligini belgilash.</p> <p>Ekinlarni etishtirish samaradorligi bo`yicha me`yor-larni ishlash.</p> <p>CHorva mollari zichligini, mollarni saqlash usulla-rini va ozuqlantirish tiplarini asoslash.</p> <p>Xo`jalikda hududni va ishlab chiqarishni tashkil etishning turg'un elementlarini (magistral yo'llar, qurilish uchun yer uchastkalari, kanallar va boshqalar) joylashtirish. Aholi yashash joylari, daryolar, ishlab chiqarish markazlari va boshq. atrofida sanitariya-himoya va tabiatni muhofaza qilish mintaqalarini belgilash.
Xo`jalikda ichki yer tuzish loyiha-si (chizma-ning birin-chi navbati - hisoblangan davr)	Xo`jalikning resurs salohiyatini baholash (mehnat resurslari, asosiy va aylanma fondlarning mavjud-ligi va ularni ko`paytirish, kapital yuklamalarni jalb etish imkoniyati). Resurslardan foydalanish yo`nalishlarini asoslash, ekinlar hosildorligini dasturlash, oziqlantirish ra-tsionlarini optimallashtirish, chorva mollarining rejalash-tirilayotgan bosh sonini va mahsuldorligini asoslash.</p> <p>Xo`jalik ixtisosligini, uning tashkiliy-ishlab chiqarish tuzilishini, ishlab chiqarish bo`limlari va xo`jalik markazlari joylashishini asoslash. Pul-moddiy resurslar bilan ta`minlangan magistral yo'llarini va boshqa umumxo`jalik ahamiyatiga ega injenyerlik ob`ektlarini joylashtirish.</p> <p>Yer turlarini tashkil etish (birinchi navbatda o`zlash-tiriladigan, transformatsiyalanadigan va yerlari yaxshilanadigan ob`ektlarni

	tanlash). Ekin maydonlari tarkibini optimallashtirish va almashlab ekishlarni tashkil etish. Almashlab ekishlar hududini tashkil etish (dalalarni, ishchi (sug'orish) uchastkalarini, dala yo'llarini, ihota polosalarini va boshq. joylashtirish). Daraxtzorlar, pichanzorlar va yaylovlar hududlarini tashkil etish.
	Loyihaviy eksplikatsiyani tuzish. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmlarini belgilash.
Loyihaning ishchi hujjatlari	Loyihani naturaga (joylarga) ko'chirishning ishchi chizmasi, loyihalangan almashlab ekishlarga o'tish rejasi, ayrim yer tuzish tadbirlari uchun smeta-moliya hisob-kitoblari.

Xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasi an'anaviy usul bo'yicha bashorat ko'rinishiga ega va uni o'zlashtirish re-surslarni jalb etishga bog'liq bo'ladi, resurs usulida loyiha real bo'ladi, sababi u, mavjud resurslar asosida tuziladi. Masalan, an'anaviy loyihalashda ekinlar xosil-dorligi loyihalash uchun topshiriqqa kiritiladi, u bashorat xarakteriga ega bo'ladi, loyihachining vazifasi unga yerlashishga yordamlashadigan resurslar o'lchamlarini hisoblashdan iborat bo'ladi.

Dastur-maqсадli yondoshuvda esa ekinlar hosildorligi - bu aniq ko'rsatkich. U mavjud mollarning bosh sonidan va bor ma'danli o'g'itlardan tayyorlangan ekish materiallari sifatidan va sh.o'. kelib chiqib, ishlab mavjud chiqarish omillarining: yerlar sifati, solinadigan organik va ma'danli o'g'itlar hajmining yig'ma ta'siriga bog'liq bo'ladi. O'z navbatida mollar bosh soni va mahsuldorligi ozuqa ishlab chiqarish hajmidan kelib chiqib aniqlanadi, u ekinlar hosildorligi va yerlar mahsuldorligiga, yashil konveyer tartibiga, ozuqa olinadigan yerlar tarkibiga, ishlab chiqarish qurilishi hajmiga bog'liq bo'ladi.

Resurs usuli bo'yicha loyihalashda ishlab chiqarish omillari va sharoitlari orasidagi o'zaro aloqa, ilmiy asoslangan me'yoriy-ma'lumot axborotining katta hajmi

hisobga olinadi, bu masalani formallashtirishni, ma`lu-motlar bankini yaratishni va komp'yutyerdan foydalanishni talab etadi.

Xo`jalikda ichki yer tuzish bo`yicha ishlar bir necha bosqichda bajariladi:

tayyorgarlik ishlari va yer tuzish izlanishlari;

loyihalashga topshiriq ishlash va tasdiqlash;

loyihani tuzish, ko`rib chiqish va tasdiqlash;

loyihani joylarga ko`chirish;

yer tuzish hujjatlarini tayyorlash va byerish;

loyihaviy tadbirlarni amalga oshirish va xo`jalik-larga mualliflik nazorati tartibida yordam ko`rsatish (qishloq xo`jalik korxonalariga yer tuzish xizmatini ko`rsatish).

Xo`jalikda ichki yer tuzish loyihasida belgilangan hududni tashkil etish qishloq xo`jalik korxonalari uchun majburiy bo`lishi kyerak.

III bob. Denov tumani Qiziljar massivida xo`jalik markazlari va ishlab chiqarish bo`limlarini joylashtirish.

III.1. Xo`jalikning tashkiliy – ishlab chiqarish tuzilishini, ishlab chiqarish bo`linmalari tarkibini, sonini va o`lchamlarini aniqlash.

Qishloq xo`jaligining o`ziga xos xususiyatlari (uning ko`p tarmoqli xarakteri, mavsumiyligi, yerning maxsus roli va sh.o`.) sababli, qishloq xo`jalik korxonasida ishlab chiqarishni tashkil etish hududni tashkil etish bilan chambarchas bog`liq va yerning ishlab chiqarish va hududiy xususiyatlarini (tuproqlar unumdorligi, namlanish sharoiti, yeroziyaga uchrashi va madaniy- texnik ahvoli, yer uchastkalarining o`lchamlari va joylashgan o`rni) hisobga olmasdan mumkin emas. Bulardan tashqari, u ko`p jihatdan aholi yashash tizimiga, aholi yashash joylari soni, o`lchamlari va joylashishiga, mavjud ijtimoiy aloqalarga ham bog`liq. Shuning uchun loyihaning bu qismining asosiy maqsadi hududni, ishlab chiqarishni va aholi tizimini tashkil etish masalalarini bog`lash, ularda xo`jalikning barcha resurslaridan (yer, pul-moddiy, mehnat) eng samarali foydalaniladigan xo`jalikda ichki bo`limlarni yaratish va joylashtirishdan iborat.

Bo'limlar va xo'jalik markazlarini joylashtirishda loyihalash xo'jalikning tashkiliy-ishlab chiqarish tuzilishini asoslashdan, uni yer egaligi va yerdan foydalanishning, aholi tizimi, ishlab chiqarishni va hududni tashkil etishning xususiyatlari bilan bog'lashdan boshlanadi. Xo'jalikning tashkiliy-ishlab chiqarish tuzulishi - bu xo'jalikdagi ichki ishlab chiqarish bo'limlari va boshqarish apparatining Shunday uyg'unlashuvini bildiradiki, unda ishlab chiqarishni ma'lum darajada tashkil etish va boshqarish, yerni, boshqa ishlab chiqarish vositalarini va mehnat resurslarini birlashtirish va ulardan foydalanish ta'minlanadi. Bu tuzulish qanchalik oddiy bo'lsa, ishlab chiqarishni boshqarish Shunchalik engil bo'ladi, ma'muriy boshqaruv apparatini saqlash uchun xarajatlar kam bo'ladi. Hozirgi vaqtda ko'proq tarmoqli, hududiy va aralash tuzulishlar uchraydi.

Tarmoqli tuzulish korxonani markazlashgan boshqarishni ixtisoslashgan bo'limlar (tarmoqlar - dalachilik, ozuqa ishlab chiqarish, sabzavotchilik, bog'dorchilik va sh.o'bo'yicha tashkil etiladigan tsexlar, brigadalar, zvenolar, fyermalar) faoliyat ko'rsatishi bilan uyg'unlashtiriladi. Hududiy tuzilish markaziy apparat va kompleks ishlab chiqarish bo'limlarini (bo'limlar, ishlab chiqarish uchastkalari, kompleks brigadalar) nazarda tutadi. Aralash tuzilish yuqorida ko'rib chiqilgan hududiy va tarmoqli tamoyillarni o'zida mujassamlashtiradi. tuzulishi tanlangan. To'rtta bo'lim tashkil etilgan, ularning har birida birlashtirilgan almashlab ekishlari bo'lgan dalachilik brigadalari va ozuqa olinadigan yerlariga ega

fermalari bor; uchinchi bo`limda bo`lardan tashqari bog`dorchilik brigadasi ham faoliyat ko`rsatadi. Har bir bo`limning o`z idorasi, buxgaltyeriyasi, garaji, qishloq xo`jalik texnikalarini saqlash, ta`mirlash va ularga xizmat ko`rsatish, don va sh.o`. saqlash joylari bor.

Uchinchi xo`jalikda aralash tashkiliy-ishlab chiqarish tuzulishidan foydalanilgan. Bu yerda ikkinchi xo`jalikdagi bo`limlarga o`xshash qurilgan ikki ishlab chiqarish uchastkasi barpo etilgan. Shu bilan bir qatorda, markaziy apparatga to`g`ridan-to`g`ri bog`dorchilik brigadasi, uzumchilik tsexi va sabzavotchilik tsexi bo`ysindirilgan.

Bo`lim (ishlab chiqarish uchastkasi) - bu dehqonchilikda va chorvachilikda har xil ixtisoslashgan bir necha brigadalardan tarkib topgan, yagona hududga birlashgan, brigadalar uchun umumiy asosiy ishlab chiqarishga xizmat ko`rsatish va uni boshqarish bo`yicha bo`lim va qo`shimcha hizmatlarga hamda umumiy ishlab chiqarish va ijtimoiy infratizimga (ishlab chiqarish markazi, elektr, gaz, issiqlik va suv ta`minoti, dala shiyponlari, oshxonalar va sh.o`.) ega yirik ko`p tarmoqli bo`linmadir.

Mazkur shaklga kompleks yoki dalachilik brigadalari deb ataladigan, murakkab ishlab chiqarish tuzulishiga ega ko`p tarmoqli va tarmoq bo`linmalari ham kiradi.

Bo`limlar hozir yer maydonlari o`lchamlari bo`yicha yirik qishloq xo`jalik korxonalarida uchraydi.

Yerga jamoa pay mulkchiligi sharoitida bo`limlarning yer maydonlari bo`yicha o`lchami R quyidagi qismlardan tashkil topadi:

$$R = R_1N + R_2 + R_3 + R_4$$

bunda R_1 - fuqarolarga mulk qilib, tekinga byeriladigan yer payi miqdori, ga; N - bo`lim tarkibiga kiritiladigan odamlar soni;  $R_2$  - ijaraga byeriladigan yerlar maydoni (ijaraga olingan yer paylari), ga;  $R_3$  - bo`limda foydalaniladigan, talab etilmaydigan yer paylari maydoni, ga; R_4 - bo`lim egaligida yoki foydalanishdagi (imoratlar, injenyerlik ob`ektlar, yo`llar, o`rmon polosalari va boshqa yerlar bilan birga) noqishloq xo`jalik yer turlari maydoni, ga.

Xo'jalikdagi ichki bo'limlar o'zlarining turlari va ixtisoslashish darajalari bo'yicha, bir necha turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish (masalan, ishlab chiqarish, mollarni bo'rdoqiga boqish va em-xashak tayyorlash) bilan Shug'ullanadigan kompleks va bir-ikki ekinni etishtiruvchi yoki bir gurux chorva mollariga xizmat ko'rsatuvchi, ixtisoslashgan bo'limlarga bo'linadi.

Ixtisoslashgan dalachilik brigadasining taxminiy o'lchami mehnat jamoasining iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqib, yerlarning qishloq xo'jalik ekinlarini etishtirish uchun yaroqliligini va ularning almashlab ekishlarda to'g'ri aylanishi imkoniyatini hisobga olgan holda aniqlanadi. ekinlar tarkibi tanlanib bo'linganidan keyin, mintaqaviy texnologik kartalarga mos tarzda dala ishlari davridagi mehnat sarflari hisoblanadi (10 jadval).

Ishlovchilarning o'rtacha bandligi (dala ishlari davridagi ish kunlari sonining ish kuni uzunligiga ko'paytmasi), ularning soni va butun dala ishlari davridagi mehnatning umumiy sarfi asosida brigadaga birlashtiriladigan maydon hisoblanadi (11 jadval).

10 jadval

1 ga haydalma yerga ishlov berish uchun zarur mehnat sarflarini hisoblash

Ekinlar	Almashlab ekishdagi nisbiy vazni	Mehnat sarf-lari me' yori 1 ga odam-soat	Mehnat sarflari, odam-soat
1. Ko'p yillik o'tlar	0,4	18	7,2
2. Don uchun kuzgi g'alla	0,1	19	1,9
3. Ozuqa uchun kuzgi g'alla	0,1	15	1,5
4. Kartoshka, ildiz mevalar	0,1	232	23,2
5. Silos uchun makkajo'xori	0,1	60	6,0
6. Baxorgi donlilar	0,2	19	3,8
Jami:	1,0	-	43,6

Fermerga biriktiriladigan haydalma yerlar maydonini tahminiyl hisoblash

Ko'rsatkichlar	Son qiymati
1. Barcha ishlarni o'z kuchi bilan bajarishda 1 ga haydalma yerga mehnat sarflari, odam-soat	43,6
2. Ishchilarning dala ishlari davridagi o'rtacha bandligi, odam-soat	1281
3. Haydalma yerlarning 1 mexanizatorga to'g'ri keladigan maydoni, ga (1281:43,6)	29,4
4. Fermerga biriktiriladigan haydalma yerlar maydoni (8 odam), ga	235,2

Ilmiy tekshirish muassasalari materiallari ko'rsatishicha, dalachilikda mehnat jamoasining optimal o'lchami mexanizatorlar soni bo'yicha ishlab chiqarishni har qanday tashkil etishda 8-15 odamdan iborat bo'ladi (yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan chegaralari 5 dan 20 gacha); mazkur tarmoqning ixtisoslashgan ishlab chiqarish bo'limlarini tuzishda bu sonlarni e'tiborga olish kerak.

Xo'jalikdagi ishlab chiqarish bo'limlari soni ular-ning o'lchamlariga, korxonaning tashkiliy ishlab chiqarish tuzulishiga, yer egaligi (yerdan foydalanishi) o'lchamiga, yerlarning unumdorligiga va joylashgan o'rniga bog'liq. Yer egaligi o'lchamlarining o'sishida, shaklining yomonlashi-shida, uzoq yerlar, yerlarning bo'linishlari va ajralib qolishlari mavjudligida xo'jalikning ichki bo'limlari soni ko'payadi, ularning o'lchamlari esa mos tarzda kamayadi.

Ozuqa ekinlari maydonlarining sut fermalari o'lchamlariga bog'liqligi

Bo`limdagi sigirlar bosh soni	Qishloq xo`jalik yerlari maydonida haydalma yerlarning nisbiy salmog'i, %			
	30	50	70	90
50	65	60	56	53
100	130	121	113	106
200	259	242	226	212
400	518	483	452	425
800	1036	966	904	850
1200	1554	1449	1356	1275

Ko`p tarmoqli xo`jaliklarda va intensiv tipdagi qishloq xo`jalik korxonalarida (masalan, shahar atrofidagi) bo`limlar soni ko`p bo`lishi mumkin. Qulay tabiiy sharoitlarda, tuproqlarning yuqori unumdorligida, fondlar bilan yuqori ta`minlanishda va aholining yuqori zichligida, aholi yashash joylarining rivojlangan tarmog'ida ham ishlab chiqarish bo`limlari soni ko`payadi.

III.2. Qishloq aholi tizimi va xo`jalik markazlarini joylashtirish

Aholi tizimi - bu ma`lum xududda joylashgan, boshqarishni, xizmat ko`rsatishni, transport va sh.o`. umumiy tashkil etish bilan bog'liq, aholi yashash joylari yig'indisidir.

Qishloq aholi tizimi shahar va aralash tizimdan mehnatga yaroqli aholining asosiy qismi qishloq xo`jali-gi ishlab chiqarishida bandligi va aholi yashash joylari-ning hududlari mos korxonalar hududlarida joylashgan-ligi bilan farq qiladi. Shuning uchun aholi yashash joyla-rining kelajakdagi rivojlanishini, ular chegaralari va ichki tuzilishini hisobga olmasdan almashlab ekishlarni va yer turlarini to`g`ri joylashtirish, yo'llarni o'tkazish, meliorativ va tabiatni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirish, ishlab chiqarishni, mehnatni va ularni boshqarishni to`g`ri tashkil etish uchun sharoit yaratish mumkin emas.

Qishloq aholi tizimiga tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillar ta'sir etadi, o'z navbatida u ham ularga aks ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtda qishloq aholi yashash joylari yerlarining qishloq (posyolka) ma'muriyati tasarrufiga byerilishi sababli yer tuzish loyihasinining bu qismi vazifalari sezilarli o'zgardi. Ular ko'proq xo'jaliklararo xaraktyerga ega bo'la boshladi, sababi, qishloq xo'jalik korxonasi hududida Fermer, dehqon xo'jaliklari o'z xo'jalik markazlari bilan, bog'dorchilik o'rtoqliklari o'zlarining maxsus tipdagi aholi yashash joylari bilan, xar xil tijorat qishloq xo'jalik korxonalari o'zlarining markazlari bilan paydo bo'la boshladi, shaxsiy uy-joy qurilishlari sezilarli kengaydi (kottejlar va sh.o'.).

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan aholi yashash joylariga shahar atrofidagi, kasbchilik, aralash va qishloq xo'jalik tipidagi aholi yashash joylari kiradi.

Eng ko'p sonli aholi yashash joylari qishloq xo'ja-lik aholi yashash joylariga to'g'ri keladi. Ular qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi markazlari hisoblanadi, sababi, ularda qishloq xo'jaligida bandlarning asosiy qismi yashaydi, xo'jalik hovlilari, ustaxonalari, omborxonala-ri, fyermalari bilan ishlab chiqarish zonalari mavjud, Shu yerning o'zida aholining shaxsiy tomorqa xo'jaliklari joylashgan. Shuning uchun adabiyotda, amaliyotdagi singari, ko'p vazifalarni bajarishga mo'ljallangan qishloq aholi yashash joylarini ko'proq xo'jalik markazlari yoki korxonaning qishloqlari deb atashadi.

Aholi yashash joylarining yerlari qishloq (posyolka) ma'muriyati tasarrufiga byerilgan bo'lishiga qaramasdan, ular qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatlari bilan qattiq bog'lanishgan. Xo'jalikdagi o'z rollari bo'yicha ular asosiy va qo'shimcha (yordamchi) qishloqlarga bo'linadi. Asosiylarga xo'jalikning markazi (yoki xo'jalikning markaziy qishlog'i) va ishlab chiqarish bo'limlari markazlari (qishloqlari) kiradi.

Markaziy qishloqda odatda xo'jalikning ma'muriy - boshqaruv apparati, aholining asosiy qismi va umumxo'jalik ahamiyatiga ega madaniy-maishiy muassasalar (maktab, kasalxona, mexmonxona, do'kon, klub va sh.o'.) joylashadi.

Xar bir ishlab chiqarish bo'limi o'z qishlog'iga ega bo'lib, ularda uning rahbar xodimlari, uy-joy, xizmat va ishlab chiqarish imoratlari, madaniy-maishiy maqsadlarga mo'ljallangan binolar jamlanadi.

Xo'jalikning qo'shimcha aholi yashash joylari, asosan, ishchilarning yashash joylari xisoblanadi; ulardan ayrimlarida ishlab chiqarish binolari, boshqa imoratlar va inshootlar joylashishi ham mumkin. Yashovchilar soni, ayniqsa mehnatga yaroqlilari, asosiy ishlab chiqarish fondlarining mavjudligi bo'yicha ular odatda katta emas.

Oxirgi vaqtlarda xo'jalik markazlari ko'p vazifalikka mo'ljallana boshladi, sababi, ular bir vaqtning o'zida korxonaning bir necha ishlab chiqarish bo'limlarini boshqarish markazi, Fermer (dehqon) xo'jaliklari egalarining yashash joylari bo'lishlari mumkin.

III.3. Ishlab chiqarish markazlarini joylashtirish

Xo'jalikning tashkiliy-ishlab chiqarish tuzulishiga asoslanadigan, ishlab chiqarish bo'limlarining soni va o'lchamlari aniqlanganidan, xo'jalik markazlari joylashti-rilganidan keyin ishlab chiqarish bo'limlarining xo'ja-lik ichidagi ixtisosligi aniqlanadi va ishlab chiqarish markazlari joylashtiriladi.

Ishlab chiqarish markazi - bu umumiy ixcham hudud, yagona texnologik jarayon, umumiy transport va enyergetika qurilmalari va hayotni ta'minlash tizimlari (suv, elektr, issiqlik ta'minotlari va sh.o'.) bilan birlashgan ishlab chiqarish binolari va inshootlari majmuasidir.

Ishlab chiqarish markazlarining quyidigi tiplari mavjud: umumxo'jalik ahamiyatiga ega majmualar (umumxo'jalik hovlilari), ular o'z ichiga ishlab chiqarish binolari va inshootlari - qishloq xo'jalik mashinalari va qurollarini ta'mirlash va saqlash bo'yicha (ta'mirlash - mexanika hovlilari), yog'och matyeriallariga ishlov byerish, qurilish detallari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish (qurilish hovlilari) bo'yicha, qishloq xo'jalik mahsulotlarini va matyeriallarini taxlash va saqlash (omborxonalar majmuasi) bo'yicha, garajlar va brigadalarning ishchi hovlilari (ular umumxo'jalik hovlilari bilan qo'shilgan vaziyatlarda) guruhini oladi;

brigadalar ishchi hovlilari;
chorvachilik, parrandachilik va boshqa hayvonlar fyermalari va majmualari;
issiqxona-parnik majmualari, omuxta em tayyorlash bo'yicha ishlab chiqarishlar
va sh.o`.

qishloq xo'jalik mahsulotlarini birlamchi qayta ishlash bo'yicha ishlab
chiqarishlar.

Xo'jalikning ishlab chiqarish ob'ektlari tarkibiga qishloq xo'jalik aviatsiyasi
uchun uchish-qo'nish maydoncha-lari, vyertolyotlar maydonchalari, vetyerinariya va
vetyerina-riya-sanitariya ob'ektlari, umumxo'jalik ahamiyatiga ega don qabul qilish
va tozalash maydonchalari, mini-elevator-lar, paxta xirmonlari, idishlar
maydonchalari, idishlarga joylash va saralash joylari, ma'danli o'g'itlarni va pes-
titsidlarni saqlash uchun omborxonalar va sh.o`. ham kiradi.

Har bir ishlab chiqarish markazlari uchun yer uchastkasi maydoni Π_y quyidagi
ifoda yordamida hisoblanadi:

$$\Pi_y = \frac{\Pi_{\kappa\text{yp}} \cdot 100}{H_n}$$

bu yerda $\Pi_{\kappa\text{yp}}$ - ishlab chiqarish markazi qurilish maydoni, loyihalanayotgan bino
va inshootlar ro'yxati bo'yicha aniqlanadi; N_n - mazkur ishlab chiqarish markazi
uchun qurilishning me'yoriy zichligi.

Fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarish markazlari maydonlarini aniqlashda
ham, hisoblangan birlikka mos tushadigan qurilish maydonlari me'yorlaridan
foydalaniladi. Ishlab chiqarish markazlari uchun ajratiladigan yerlar, yoqimsiz xidlar
va oqova suvlarining oldini olish va antisanitariya xolatiga yo'l qo'ymaslik uchun,
aholi yashash joylarining yashash zonasiga nisbatan rel'efi past va sha-molga teskari
tominidan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqa-rishi uchun yaroqsiz yoki kam yaroqli, sifati
past yerlarda joylashtiriladi. Ishlab chiqarish markazi uchun tanlangan joy quruq,
imkoni boricha tekis, xo'jalikning ichki yo'l tarmog'iga, mollar haydaladigan
yo'llarga, ozuqa almashlab ekishlarga nisbatan qulay joylashgan bo'lishi kyerak.

Sanitariya-himoya zonalarining o'lchamlari 14 jadvalda keltirilgan. Ishlab chiqarish markazining maydoni yerning qulay shaklini yaratish uchun yonida joylashgan kam unumli yerlar hisobiga kengaytirilishi mumkin.

Uni kamaytirish (yerlarni qirqib olish va ularni boshqa yer turlariga qo'shish) faqat ishlab chiqarish imoratlari, binolari va inshootlarining joydagi joylashishi taxlil etilgandan keyin amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish markazlari yerlarining aniq maydoni aholi yashash joylarini rejalash va qurish loyihalarida belgilanadi.

Ishlab chiqarish markazlarini mintaqalash chizmasini tuzishda texnologik operatsiyalar ketma-ketligi, ob'ektlarning o'zaro ishlab chiqarishdagi aloqalari va rejalashtirish talablari hisobga olinadi. Masalan, mashina ta'mirlash va qurilish majmualari qattiq bog'langan, Shuning uchun odatda ular yonma-yon joylashtiriladi. Ishlab chiqarish mintaqasi ichida ular chegaraga yaqin, asosiy haydalma yerlarga qaratilib joylashtiriladi. Bu qishloq xo'jalik texnikalarining ishlab chiqarish va yashash zonalariga kirmasdan dalalarga va orqaga o'tishlari uchun zarur. Bundan tashqari, yog'och va taxta matyeriallarni olib keladigan tirkamali og'ir yuk tashiydigan avtomashinalarning aylanishlari sonini qisqartirish kerak

III.4. Ishlab chiqarish bo'limlari yer maydonlarini joylashtirish

Ishlab chiqarish bo'limlari yer maydonlarini joylashtirishga va ularning chegaralarini belgilashga xo'jalikning tashkiliy-ishlab chiqarish tuzilishi asoslanganidan, har xil mehnat jamoalarining soni, o'lchamlari va ixtisosliklari belgilanganidan keyin kirishiladi. Bunda xo'jalik markazlari, hamda yer tuzish yilida mavjud chorvachilik majmualari va fyermalarining nazarda tutilgan joylashishi, ishlab chiqarish bo'limlarining chegaralari va joylashishi hisobga olinadi.

Bo'limlarning yer massivlari maydonlari, yer turlari tarkiblari va sifati bo'yicha eng yaxshi tarzda xo'jalikning ichki ixtisoslashishiga mos kelishi, mehnatga yaroqli aholining bandligini tekis, yerdan va ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanishni ta'minlashi kerak.

Bo'limlar yer maydonlari shakli va joylashishi bo'yicha ixcham, iloji boricha to'g'ri chiziqli chegaralarga ega, to'g'ri shaklda bo'lishi va xo'jalik markaziga eng

yaqin joylashgan bitta massivda joylashishi kerak. Bu odamlarni va yuklarni tashish uchun transport xarajatlarini va qishloq xo'jalik texnikasining befoyda yurishlarini sezilarli qisqartirish imkonini beradi. Ular ishlab chiqarishning eng yuqori samaradorligini ta'minlovchi oqilona o'lchamlarga ega bo'lishlari kerak.

Xo'jalikning ichki ixtisoslashishini, bo'limlarga birlashtirilgan yer turlari tarkibini va ularning chegaralarini belgilashda ularning keyinchalik transformatsiyalanish imkoniyatlari va xo'jalikda hududni ichki tashkil etish (yo'llarni, almashlab ekishlarni, magistral kanallarni va sh.o'. joylashtirish) hisobga olinadi.

Ishlab chiqarish bo'limlarining yer massivlarini shunday shakllantirish kerakki, bunda xo'jalik markazi iloji boricha yerdan foydalanishning markaziy qismida joylashsin. Bu asosiy yer turlarini aholi yashash joylariga yaqinlatish, yuklarni tashish va qatnashlarning o'rtacha masofasini ancha qisqartirish va Shuning hisobiga ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi.

Xo'jalik markazi joylashishining yerlar uzoqlashishiga ta'siri to'g'risida 15 jadval ma'lumotlari bo'yicha xulosa qilish mumkin. Masalan, qishloqdan dalalargacha bo'lgan o'rtacha masofa yaxshi echimda 3 km (yerdan foydalanish tomonlari nisbati 1:1, qishloq uning markazida joylashadi) yomon echimda 7,5 km o'zgaradi. Ishlab chiqarish bo'limlari yer massivlarini joylashtirishda quyidagi talablarga rioya qilinadi:

har bir ishlab chiqarish bo'limiga uning xo'jalik markazlariga eng yaqin joylashgan yerlar birlashtiriladi. Bo'lim hududida bir necha qishloq va ishlab chiqarish

**Xo`jalik markazi joylashtirilishining har xil echimlarida yerlarning uzoqligi,
km***

Yer uchastkasi tomonlari nisbati	Massivning uzunligi	Xo`jalik markazining joylashishi		
		yer egaligi markazida	yarim o`qining o`rtasida	kalta tomoni o`rtasida
1:1	12,1	3,0	3,0	4,6
2:1	13,1	3,3	3,3	5,7
3:1	14,6	14,6	3,7	6,7
4:1	16,1	16,1	4,0	7,5

*Yerdan foydalanishning maydoni 5000 ga, haydalma yerlar maydoni 4000 ga.

markazlari mavjud bo`lsa, yerlarni Shunday biriktirishga harakat qilinishi kyerakki, bunda odamlarning qarama-qarshi yurib o`tishlarini va texnikalarning yurishlarini tugatish kerak;

bo`limlar yer massivlari chegaralari imkoni boricha yerda mavjud tabiiy elementlar (daryolar, jarliklar, bosh-qa turlari), magistral yo`llar, kanallar, o`rmon polosa-lari va boshqa sun`iy inshootlar bilan birlashtiriladi;

yer massivlari ixcham, to`g`ri shaklga ega bo`lishi va o`tish qiyin bo`lgan tabiiy va sun`iy to`siqlar (jarliklar, botqoqliklar, temir yo`llari, katta kanallar va sh.o`) bilan bo`linmasligi kerak.

Ishlab chiqarish bo`limlari yer massivlarini joylashtirish taxminiy eksplikatsiyani tuzish bilan yakunlanadi, unda yerlarning bo`limlar orasida yer turlari bo`yicha taqsimlanishi aks ettiriladi.

III.5. Loyihaviy echimlarni iqtisodiy asoslash

Ishlab chiqarish bo`limlari va xo`jalik markazlarini joylashtirish hududni, ishlab chiqarishni va aholi tizimini tashkil etishga ta`sir etadi, Shuning uchun xo`jalikda ichki yer tuzish loyihasining mazkur qismida barcha masalalar majmuiga asoslash byeriladi.

Loyihaning mazkur qismi bo'yicha hududning tashkil etilishini takomillashtirish kapital xarajatlar bilan bog'liqligini hisobga olib, loyihaviy echimlarni iqtisodiy asoslash uchun kapital xarajatlar samaradorligi hizmat qiladi.

Loyihaviy echimlarning yaxshisini tanlashda nisbiy samaradorlikning ikki mezonidan foydalaniladi:

keltirilgan xarajatlar minimumi

$$KE_n + S \rightarrow \min$$

bu yerda K - kapital xarajatlar; S - yillik xarajatlar; E_n - kapital xarajatlar samaradorligining me'yoriy koeffitsienti, 0,7 teng;

keltirilgan xarajatlarning 1 so'miga sof daromadning maksimum o'sishi

$$\frac{\Delta C\mathcal{I}}{KE_n + C} \rightarrow \max$$

Birinchi mezon loyiha echimlarida rejalashtiri-layotgan mahsulotning soni, hajmi va qiymati o'zgarishini nazarda tutmagan hollarda qo'llaniladi; ikkinchisi - xarajatlar ishlab chiqarishning yangi sharoitini yaratib, xo'jalikning kelajakdagi iqtisodiy faoliyati ko'rsatkichlarini son jihatdan o'zgartiradigan vaziyatlarda qo'llaniladi. Masalan, loyihaning boshqa echimlari bilan solishtirganda mollarning bosh soni, etishtiriladigan mahsulotlar hajmi ko'payadi, yangi fyerma quriladi.

Kapital xarajatlar samaradorligining me'yoriy koeffitsienti qiymatini asoslash qiyin bo'lgan vaziyatlarda loyihaning yaxshi echimini tanlashda mezon sifatida kapital xarajatlarning absolyut (mutloq) samaradorligi ko'rsatkichidan foydalaniladi.

$$E = \frac{\Delta C\mathcal{I}}{K} \rightarrow \max, \text{ yoki } T = \frac{1}{E} = \frac{K}{\Delta C\mathcal{I}} \rightarrow \min$$

bunda E - kapital xarajatlar samaradorligi koeffitsienti; T - kapital xarajatlarning qoplanish muddati, yil.

Kapital xarajatlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

yangi ishlab chiqarish qurilishlari (chorvachilik imoratlari, omborxonalar, saqlagichlar, ustaxonalar, garajlar, infratizim ob'ektlari va boshq.) xarajatlari;

ishlab chiqarish binolarini mehnat sharoitini, ishlab chiqarish jarayonlarini mehanizatsiyalashni yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish maqsadida qayta jihozlash yoki qayta qurish xarajatlari.

Qishloq xo'jalik korxonasi mablag'lari hisobiga uy-joy qurilishi amalga oshiriladigan, uning yerlarida yangi xo'jalik markazlari tashkil etiladigan vaziyatlarda kapital xarajatlarni xisoblashda yangi uy-joy, madaniy-maishiy qurilishlar va hududni injenyerlik jihozlash, (suv o'tkazish tarmog'ini qurish, oqova suvi qovurlarini yotqizish, elektr tarmoqlari va boshq.) uchun xarajatlar hisobga olinadi.

Ishlab chiqarish bo'limlari va xo'jalik markazlarini har xil joylashtirish bilan bog'liq yillik xarajatlar va sarflarni aniqlashda quyidagilar hisoblanadi:

binolar, inshootlar, jihozlar va boshqa asosiy fondlar bilan bog'liq amortizatsiya ajratmalari va ekspluatatsiya xarajatlari;

yuklarni va ishchilarni tashish uchun transport xarajatlari;

loyihalashda o'zgaradigan ma'muriy-boshqaruv xodimlarini saqlash va umumishlab chiqarish va umumxo'jalik xarajatlarning boshqa tarkibiy qismlari;

xo'jalikda ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va yiriklashtirishning har xil darajasi bilan bog'liq qo'shimcha ishlab chiqarish xarajatlari;

yangi ishlab chiqarish markazlarini qurish va mavjudlarini kengaytirish uchun ajratiladigan unumdor maydonlardan olinmay qoladigan sof daromad (sof daromadning yo'qotilishi).

Ishlab chiqarish markazlarini qurish qiymatini baholashda va ularning maydonlarini hisoblashda 16 jadval ma'lumotlaridan foydalanish mumkin.

Ishlab chiqarish binolari va inshootlarini qayta qurish yoki qayta jihozlash uchun bir martalik (kapital) xarajatlar maxsus o'tkaziladigan smeta-moliya hisob-kitoblari asosida belgilanadi. Tahminiy hisob-kitoblar uchun bu qiymat ob'ekt balans qiymatining 30 % gacha, inshootni to'la almashtirishda esa - 40 % gacha qilib belgilanishi mumkin.

Ishlab chiqarish markazlarini kengaytirish, qayta qurish yoki qayta jixozlash bo'yicha ishlar mavjud fondlarni tugatish bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlarda, bu fondlarning sotish qiymati mos kapital xarajatlarga qo'shiladi. Bu qoldiq qiymat balans qiymati va ajratilgan amortizatsiya qiymati orasidagi farq sifatida aniqlanishi ham mumkin.

Amortizatsiya ajratmasi imoratlar turlari va matyeriallariga inshootlarning xizmat muddatlariga va tiplariga bog'liq holda belgilanadi. Ular foizlarda hisoblanadi: yangi ob'ektlar bo'yicha - smeta qiymatidan, mavjud binolar va inshootlar bo'yicha, Shu jumladan foydalanilmaydigan - balans qiymatidan. Masalan, g'ishtdan tyerilgan, temir beton va boshqalar bilan yopilgan binolar uchun amortizatsiya ajratmalarining umumiy me'yori 4,7%, yog'och, yog'och sinchli va tahtadan qurilgan binolar uchun esa - 7,1 % teng bo'ladi.

Ekspluatatsiya xarajatlari tarkibiga ob'ektlarni joriy ta'mirlash, elektr enyergiyasi, isitish, himoya qilish, jixozlarga xizmat ko'rsatish (texnik xodimlarga haq to'lash) va boshq. uchun xarajatlar kiradi. Ular ham yangi qurilayotgan va mavjud imoratlar va inshootlarning umumiy kapital qiymatidan foiz hisobida aniqlanadi.

Ekspluatatsiya xarajatlari foizini taxminiy hisob-kitoblar uchun 5 % teng qilib qabul qilinishi mumkin.

16 jadval

Ishlab chiqarish markazlarini qurish xarajatlari va ularning maydonlarini aniqlash uchun me'yorlar (N.A.Kuznetsov ma'lumotlari bo'yicha)

Korxonaning turi	Sig'imi, R	Qurilish qiymatini hisoblash, A, ming so'm	Ishlab chiqarish markazining maydonini aniqlash, S, ga
1	2	3	4
Qoramol sut fermasi	200-1600 bosh	372,+2,66 P	0,38+0,008
Qoramol buzoq-larini o'stirish va bo'rdoqiga boqish bo'yicha ferma	1000-10000 bosh	255,6+0,45 P	1,60+0,0088
G'unajinlar va birinchi tug'ayot-gan sigirlarni o'stirish bo'yicha fyerma	3000-6000 bosh	8,62 +0,97 P	0,76 + 0,0021 P
G'unajinlar va birinchi tug'ayot-gan	3000-6000	8,62 +0,97 P	0,76 + 0,0021 P

sigirlarni o`stirish bo`yicha fyerna	bosh		
Naslchilik cho`chqa fermasi	400-2400 bosh	395,3+4,14 P	0,60 + 0,126 P
Bo`rdoqichilik cho`chqa fermasi	2000-20000 bosh	324,+0,25 P	5,25 + 0,00015 P
Jun-go`sht yo`na-lishidagi qo`y-chilik fermasi	3000-5000 bosh	851,6+0,018 P	0,32 + 0,00098 P
Go`sht yo`nali-shidagi parran-da fermasi	125-1000 ming bosh	511,6 + 0,00468 P	4,2+0,000019 PX
Qishloq xo`ja-lik texnika-	25-200 traktor	457 + 1,39 P	6,9 + 0,001 P
larini ta`mir-lash va ularga xizmat ko`rsa-tish bo`yicha ustaxona			
Avtogaraj	5-25 avtomobil	90,2 + 1,12 P	0,08 P

Xo`jalik xududidagi aholi yashash joylari va ishlab chiqarish markazlarining soni va joylashishi har xil bo`lganligi sababli, yer tuzish loyihasi echimlari bo`yicha transport xarajatlari ham o`zgaradi. Ular o`z ichiga hosilni va em-xashaklarni dalalardan qishloqlarga, har xil yuklarni qishloqlardan dalalarga (urug`lik va ko`chat mate-riallari, organik va mineral o`g`itlar, ohak), tovar mahsu-lotlarini uni sotish joylariga tashish xarajatlarini, hamda aholi yashash joylari orasida yuklarni va ishchilar-ni ish o`rinlariga va orqaga tashish xarajatlarini oladi.

Bog`liqliklar (ifodalar) 2000 y. baholarida aniqlangan, Shuning uchun ulardan amaliy foydalanishda hisoblashni o`tkazish davridagi ta`riflar o`zgarishini hisobga oluvchi koeffitsientni kiritish talab etiladi:

$$C_{io} = (a_1 + a_2 R) \cdot K_u ,$$

bunda C_{io} - yuk birligini tashish bahosi, t/so`m;  $a_1, a_2$  – aniqlangan bog`liqlikning son qiymatlari (24 jadval ma`lumotlari bo`yicha aniqlanadi); R – yuklarni tashishning o`rtacha masofasi, km;  $K_u$  – hisoblashni bajarish davrida ta`riflar o`zgarishini hisobga oluvchi koeffitsient. 17 jadval

Yuklarni tashish qiymatini hisoblash, t/so`m (tashish masofasi 20 km gacha bo`lganda)

Transport turi	Yuklarning asosiy sinflari			
	I. Don, go`ng, ildizmevalar	II. Poliz, paxta sabza-vot, yashil ko`katlar	III. Silos, ta-maki, sut av-totsisternalarda	IV. Pichan, somon, yashil o`tlar

Avtomobil, aralash qura-lash yuklanadiganlardan tash-qari, yuk ko'ta-rishi 5 t or-tiq, 70 % yuklar	0,22+0,07 R	0,25+0,09 R	0,36+0,12 R	0,44+0,14R
Traktor, 30 % yuklar	0,25+0,14 R	0,31+0,17 R	0,41+0,24 R	0,50+0,28R
O'zi ag'daradi-gan avtomobil, aralash bosil				
gan yuklarni tashishga mo'ljallangan, yuk ko'tarishi: 7 t gacha 7 t ortiq		0,07+0,08 R 0,05+0,08 R		

Ishchilarni ish o'rinlariga olib borish va orqaga olib qaytish xarajatlari (Z_R) quyidagi ifoda yordamida aniqlanadi:

$$3_p = D \cdot n \cdot R \frac{2}{H} C_T,$$

bunda D – ishchi davrdagi barcha ishlar uchun mehnat sarfi, odam-kun; n - bir kunda bir ishchining o'rtacha qatnovlari soni; R -qatnovlarning o'rtacha masofasi, km; N - bir mashinada olib boriladigan odamlar soni, odam; S_t - avtomashinaning 1 km yurishining bahosi, so'm.

Aytaylik, xo'jalikdagi haydalma yerlar maydoni 2000 ga, 1 ga haydalma yerga o'rtacha mehnat sarfi esa 9 odam-kunga teng bo'lsa, $D = 18000$ odam kun ($2000 \cdot 9$) bo'ladi. $R=4,5$ km, $p=2$, $H=20$ odam, $S_t = 1,5$ ming so'm bo'lganda, ishchi kuchini tashish uchun xarajatlar

$$3_r = 18000 \cdot 2 \cdot 4,5 \frac{2}{20} 1,5 = 24,3 \text{ mln so'mga teng bo'ladi.}$$

Ma'muriy-boshqaruv xodimlarini saqlash uchun xarajatlar ularning sonidan va yillik ish haqi fondi miqdoridan kelib chiqib hisoblanadi.

Xo'jalikning tashkiliy ishlab chiqarish tuzulishi ishlab chiqarishning ixtisoslashish va yiriklashish darajasini aniqlaydi, mahsulot tannarxiga va mehnat sarfiga sezilarli ta'sir etadi.

Dalachilik tarmoqlarida yiriklashtirish samarasi mahsulot tannarxini tabaqalash va unga ekinlarning jamlanish darajasi uchun tuzatish kiritish yo'li bilan topilishi mumkin, 1 ga so'm:

$$S_n = C_o K_k,$$

bunda S_n -bo'limdagi tannarx (ishlab chiqarish xujjatlari); S_o - Shuning o'zi xo'jalik bo'yicha; K_k - ishlab chiqarish bo'limida ekinlar maydonlari o'lchamlariga bog'liq holda tannarx o'zgarishini tavsiflovchi koeffitsient.

Har xil ekinlar uchun K_k koeffitsienti qiymatini quyidagi ifodalar bo'yicha hisoblash mumkin: kuzgi g'alla uchun $0,93 + \frac{19,12}{P_p}$, bahorgi g'alla va donli-dukkaklilar - $0,86 + \frac{38,25}{P_p}$, kartoshka va sabzavotlar - $0,80 + \frac{42,23}{P_p}$, qand lavlagisi va ildizmevalar - $0,91 + \frac{23,11}{P_p}$, makkajo'xori - $0,86 + \frac{33,47}{P_p}$, kungaboqar - $0,96 + \frac{11,16}{P_p}$, bir yillik o'tlar - $0,90 + \frac{17,53}{P_p}$, ko'p yillik o'tlar - $0,90 + \frac{20,72}{P_p}$, bunda P_p - ekin egallagan maydon.

so'mni tashkil etadi va qo'shimcha 3684 ts. don ishlab chiqarishga tengdir.

Yangi ishlab chiqarish markazlarini qurish yoki mavjudlarini kengaytirish uchun ajratiladigan unumdor maydonlardan olinmaydigan sof daromad P_{sd} quyidagi ifoda bo'yicha aniqlanadi:

$$P_{sd} = SDS$$

bunda - SD - 1 ga maydondan olinadigan sof daromad, so'm; S - ishlab chiqarish markazlarini qurish uchun olinadigan maydon, ga.

Yer tuzish loyihasi bo'yicha 2 echim ko'rib chiqiladi.

1 echim bo'yicha 1300 va 800 ga haydalma yerlarga ega ikkita hududiy ishlab chiqarish uchastkalarini tashkil etish, markaziy qishloq yonidagi sut fermasi sigirlari sonini 500 sigirgacha ko'paytirish va Navro'z qishlog'i yonida 100 boshga mo'ljallangan yangi sut fermasini qurish ko'zda tutiladi.

2 echim bo'yicha markaziy qishloqdagi sut fermasidagi sigirlar sonini 600 boshgacha ko'paytirish ko'zda tutiladi.

Xo'jalikda ishlab chiqarishni tashkil etish shakli - xududiy.

Loyiha echimlari bo'yicha mollar bosh sonlari va chorvachilik mahsulotlari qiymati bir hil bo'lganligi sa-babli, taxlilda faqat kapital xarajatlar va ishlab chiqarishning yillik xarajatlari o'zgaradi, Shuning uchun loy-ihaning optimal echimini

tanlashda mezon sifatida kelti-rilgan xarajatlar minimumidan foydalanish kyerak. Aso-siy iqtisodiy ko`rsatkichlarni hisoblash 19 jadvalda keltirilgan.

Xo`jalikda kapital yuklamalardan foydalanishning uch yo`li bor.

19 jadval

Ishlab chiqarish bo`limlari va xo`jalik markazlarini joylashtirishni iqtisodiy asoslash, ming so`m

Ko`rsatkichlar	I echim			II echim
	1 ishlab chiqarish uchastkasi	2 ishlab chiqarish uchastkasi	Hammasi	dehqonchilik sexi
1	2	3	4	5
<i>Kapital xarajatlar</i>				
500,100 va 600 boshga mo`ljallangan chorva-chilik fyermalarini qurish qiymati ($A=372,6+2,66P$)	1702,6	638,6	2341,2	1968,6
Ishlab chiqarish imo-ratlarining saqlab qolinadigan qiymati	434,2	-	-	434,2
Ishlab chiqarish qu-rilishiga talab qi-linadigan qo`shimcha	1268,	638,6	1907,0	1534,4

kapital xarajatlar	4			
<i>Ishlab chiqarishning yillik xarajatlari va zararlar</i>				
Ishlab chiqarish mar-kazlarining hisob-langan maydoni, ga ($S=0,38+0,008P$)	4,38	1,18	5,56	5,18
Ishlab chiqarish mar- kazlari egallab tur-gan maydon, ga Qo`shimcha qurilish	3,00	-	3,00	3,00

1	2	3	4	5
uchun maydon, ga (ΔS) Qo`shimcha qurilish egallaydigan maydon-dan olinadigan sof daromadning yo`qoti-lishi ($0,35\Delta S$)	1,38	1,18	2,56	2,18
Amortizatsiya ajrat-masi (3%) Ekspluatatsiya	0,48	0,42	0,90	0,76
	51,04	19,16	70,20	59,06

xarajatlari (5%)	85,06	31,93	116,99	98,43
Tashish uchun trans-port xarajatlari, hammasi	10,8	7,56	17,64	19,68
Shu jumladan:	8,28	6,24	14,52	6,24
yuklarni	1,80	1,32	3,12	3,60
ishchilarni				
Ma`muriy- boshqaruv xodimlarining yil-lik ish haqi fondi	21,60	19,2	40,8	24,00
Ishlab chiqarishni yiriklashtirish da-razasini hisobga ol-gan holdagi yillik ishlab chiqarish xa-rajatlari, hammasi				
Shu jumladan:				
fyermalarda mollarni jamlash hisobiga	61,10	20,46	81,56	48,41
(2210+77P)	40,71	9,91	50,62	48,41
ekinlar maydonlari-ni yiriklashtirish				

hisobiga (nisbiy)	20,39	10,55	30,94	-
(25 jadvalga qaralsin)				
Jami yillik xarajatlar	229,36	98,73	328,09	250,34
Keltirilgan xarajatlar	318,15	143,43	461,58	357,75

Co`zsiz, har bir echim yer tuzish nuqtai nazaridan boshqasiga aylantirilishi mumkin (fyermalarni har xil joylashtirish, ishlab chiqarish bo`limlari soni, ozuqa bazasini tashkil etish bilan).

20 jadval

Kapital xarajatlarning mutloq (absolyut) samaradorligini hisoblash

Ko`rsatkichlar	Yer tuzish yiliga	Loyiha bo`yicha				
		400 bosh-ga mo`l-jallangan fyer-madani ish-lab chiqarishni takomillashtirish	Fermani 500 boshgacha kengaytirish va qayta qurish	Mavjud 400 boshga mo`l-jallangan fyermani saqlab qo`lib 200 boshga yangi fyerma qurish	Fermani 500 boshgacha kengaytirish va qayta qurish	Mavjud fermani 600 boshgacha kengaytirish va qayta qurish
1	2	3	4	5	6	7
Kapital xarajatlar						
Mollarni fyer-malarda joy-lashtirish, bosh Fyermalarni	400	400	500	200+400	500+100	600

qurishga nisbiy kapital xarajatlar, ming so`m						
---	--	--	--	--	--	--

$A_U=2,66+\frac{372,6}{P}$)	-	3,592	3,405	4,523	3,405+6,386	3,281
Xarajatlar, ming so`m: fyermalarni takomillashtirishga						
$(A_m=A_nR \cdot 0,3)$ fyermalarni kengaytirish va qayta qurishga	-	431,0	-	-	-	-
$(A_m=A_nR \cdot 0,4)$ fyermalarni yan-gidan qurishga	-	-	681,0	-	681,0	787,4
$(A_m=A_nR \cdot 1,0)$ Qo`shimcha poda-ni shakllantirish (1 boshga 840 so`m hisobida)	-	-	-	904,6	638,6	-
Jami bir	-	-	84,0	168,0	84,0+84,0	168,0

mar-talik xarajat-lar K, ming so`m Ma`muriy- bosh-qaruv xodimla-rini saqlash xarajatlari, ming so`m Barcha kapital xarajatlar K, ming so`m	-	431,0	765,0	1072,6	1487,6	955,4
24,0	24,0	24,0	40,8	40,8	24,0	
467,2	419,4	521,4	683,5	652,7	607,1	
Yillik xarajatlar						
Fyermalarda gi mexanizatsiy a-lash darajasi-ni hisobga olib, ishlab chiqarish xara-jatlari: 1 boshga, so`m hammasi, ming so`m	972	778	778	693 va 972	778 va 693	778
338,8	306,4	389, 0	516,6	452,9	466,8	
Fyermalarda mollarning jamlanish da-ajasini hi- sobga olib,						

ishlab chiqarish xarajatlari- ning o`zgarishi, ming so`m	-	-	-0,6	+1,1	+1,1	-1,1
Amortizatsiy a ajratmasi, ming so`m	13,0	26,0	33,5	40,2	52,6	36,6
Ekspluatatsi ya xarajatlari, ming so`m	21,7	43,3	55,8	67,2	87,7	61,1
Transport xa-rajatlari, ming so`m	19,7	19,7	19,7	17,6	17,6	19,7
Ma`muriy- bosh-qaruv xodim-larni saqlash xarajatlari, ming so`m	24,0	24,0	24,0	40,8	40,8	24,0
Barcha yillik xarajatlar S, ming so`m	467,2	419,4	521, 4	683,5	652,7	607,1
CHorvachilik mahsulotlarini etishtirish						
Mollar bosh soni, bosh	400	400	500	200+40 0	500+10 0	600
1 sigirdan so-g'ib olinadigan sut, yiliga, ts 1 sigir hiso-	40	40	40	40	40	40

biga olinadigan go`sht, yiliga kg	120	120	120	120	120	120
Sut sotish, hammasi, ming, so`m						
(1 kg 30 so`m hisobida)	480,0	480,0	600,0	720,0	720,0	720,0
Go`sht sotish, hammasi, ming so`m	144,0	144,0	180,0	216,0	216,0	216,0
(1kg 3 so`m hisobida)						
CHorvachilik mahsulotlari -ning hammasi, ming so`m	624,0	624,0	780,0	936,0	936,0	936,0
Sof daromad						
CHorvachilik mahsulotlari -						
ni sotishdan olinadigan sof daromad, ming so`m	156,8	204,6	258,6	25,25	283,3	328,9
YAngi ishlab chiqarish qurilishi uchun						

ajra-tilgan yerlar-dan olinmaydigan sof daromad, ming so'm	-	-	0,3	0,7	0,7	0,6
Cof daromadning hammasi SD, ming so'm	156,8	204,6	258,3	251,8	282,6	328,3
Loyihaviy tad-birlar hisobi-ga sof daromadning o'sishi, SD, ming so'm	-	47,8	101,5	105,0	125,8	171,5
Kapital xarajatlarning mutloq (absolyut) samaradorligi						
Kapital xarajatlar samaradorligi koeffitsienti $E = \frac{\Delta C/I}{K}$	-	0,11	0,13	0,09	0,08	0,18

20 jadvaldan ko`rinib turibdiki, byerilgan sharoit-larda xo`jalik uchun ishlab chiqarishni tashkil etishning tarmoqli tuzilishini saqlagan holda, mavjud fyermani 600 yoki 500 boshgacha kengaytirish va qayta qurish foydaliroq hisoblanadi. Bu echimlarda kapital harajatlar samaradorligi koeffitsientlari mos tarzda 0,18 va 0,13 teng.

Loyihaviy echimlarning samaradorligini 21 jadval

ma'lumotlari ham ko'rsatib turibdi.

Aytish kerakki, xo'jalik uchun fyermani 500 boshgacha kengaytirish va qayta qurish va mavjud fermada Shu ishlarni bajarish bilan bir qatorda 100 boshga mo'ljallangan yangi fyerma qurish bir xil samarali.

21 jadval

Kapital xarajatlarning nisbiy samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblash, ming so'm

Ko'rsatkichlar	Yer tuzish yiliga	Loyiha bo'yicha				
		400 boshga mo'ljallangan ferma-da ish-lab chi-qarish-ni takomillash-tirish	Fermani 500 bosh-gacha kengaytirish va qayta qurish	Mavjud 400 boshga mo'ljallangan fyermani saqlab qolib 200 boshga yangi fyerma qurish	Fermani 500 bosh-gacha kengaytirish va qayta qurish va 100 boshga yangi ferma qurish	Mavjud fermani 600 boshgacha kengay-tirish va qayta qurish
Bir martalik xarajatlar	-	431	765,0	1072,6	1487,6	955,4
K Yillik hara-jatlar	467,2	419,4	521,4	683,5	652,7	607,1
S CHorvachilik mahsulotl	624,0	624,0	780,0	936,0	936,0	936,0

ari qiymati Sof daromad SD Loyihaviy tad-birlar hisobi-ga sof daro- madning o'sishi SD Keltirilgan xarajatlar $KE_n + C$ Keltirilgan xarajatlarni ng 1 so'miga sof daromadni ng o'sishi $\frac{\Delta C_{II}}{KE_n + C}$	156,8	204,6	258,3	251,8	282,6	328,3
-	47,8	101,5	95,0	125,8	171,5	
-	449,6	575,0	756,8	756,8	674,0	
-	0,11	0,18	0,12	0,17	0,25	

Shunday qilib, agar ishlab chiqarish markazlarini joylashtirishning echimlari bo'yicha mollar bosh soni, demak, mahsulot qiymati ham o'zgaradigan bo'lsa, eng yaxshi loyihaviy echimni tanlash ko'rsatkichi bo'lib sof daromadning keltirilgan xarajatlarning 1 so'mi hisobiga maksimal o'sishi xizmat qiladi.

Xulosa

Bugungi mustaqillik sharoitida iqtisoliy sohadagi, ayniqsa, qishloq xo'jaligi sohasidagi tub islohotlarni amalga oshirish, mavjud muammolarni o'rganib chiqish va hal etish, ko'zlangan natija va yutuqlarga erishish, iqtisodiy hayotni yanada erkinlashtirish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, yerlarni o'z egalariga berish, dehqon-fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va shular asosida iqtisodiyotni taraqqiy toptirish bosh maqsadimizdir. Ushbu nuqtai nazarlar, fikr va mulohazalar muhtaram Prezidentimiz nutqlarida, sessiya ma'ruzalarida, qonun xujjatlarida, qarorlar ijrosida va jamoatchilik fikrlarida bayon qilinadi.

Jumladan, Prezidentimiz I.A.Karimov Oliy Majlisning 1999yilgi XIV sessiyada qilgan ma'ro'zada mamlakatimizning yangi asr boshida amalga oshirish lozim bo'lgan ustivor yunalishlarning birinchisi iqtisodiyotimizning muhim tarmog'i bo'lgan qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni yanada erkinlashtirish masalasiga qaratilgandi.

Iqtisodiy sohani yanada erkinlashtirish maqsadi-birinchi navbatda davlatning boshqaruv rolini chegaralash, xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning iqtisodiy erkinliklarini hamda iqtisodiyotning barcha sohalarida, shu jumladan agrar sohada ham xususiy mulk miqyoslarini kengaytirish, mulkdorlarning mavqei va huquqlarini mAlihkamlash demakdir.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan tub islohotlarning huquqiy asoslari yaratildi. O'nlab qonunlar, hukumat qarorlari ushbu sohada olib borilayotgan islohotlarning qonun me'yorlari va tartib qoidalar asosida amalga oshirilishida asos bo'lib xizmat qilmoqda. Qishloq xo'jaligida ko'p tarmoqli iqtisodiyotni shakllantirish, turli mulkchilik hamda xo'jalik yuritish shakllarini faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan huquqiy me'yoriy asoslar yaratildi.

Ushbu bajarilgan bitiruv malakaviy ishi O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaliklari to'g'risidagi qonuniga muvofiq hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 6 oktyabrdagi 2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish kontsepsiyasi to'g'risidagi va 2006 yil 9 yanvardagi PF - 3709-farmoni, 2006 yil 11 yanvardagi PK-255-sonli qarorlari asosida xo'jaliklar to'liq fermer

xo'jaliklariga aylantirilgan edi. 2008 yil 5 oktyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining F-3077 sonli farmoyishida faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklarini yer maydonlarini inventarizatsiyadan aniq o'tkazish, yer maydonlaridan oqilona foydalanishini tahlil qilish va fermer xo'jaliklarining moliyaviy holatini tanqidiy tahlil qilish natijasida fermer xo'jaliklari yer maydonlarini optimallashtirish vazifasi qo'yildi. Bu ishlarni amalga oshirishda fermer xo'jaliklarining ish yuritishni tashkil etilganligi, texnika va texnik vositalar bilan ta'minlanganligiga alohida e'tibor qaratilishi ko'rsatib o'tildi. Mavzu yuqoridagi farmon va qarorlar asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchi bo'lib qoladigan yer maydonlari optimallashtirish fermer xo'jaliklarini tashkil etish masalalariga bag'ishlanadi.

Bitiruv malakaviy ishida qo'yilgan maqsadga erishish uchun ob'yekt sifatida qabul qilingan Buxoro viloyati Shofirkon tumanidagi N.Hamroyev massivning tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlari o'rganib chiqildi va mavjud fermer xo'jaliklari tahlil qilindi. Qilingan tahlil asosida massivdagi fermer xo'jaliklari hududini tashkil qilish bo'yicha tabiiy iqlim sharoitlarini va aholi zichligini hisobga olgan holda 25 ta fermer xo'jaliklari loyihalandi. Mazkur fermer xo'jaliklarining umumiy yer maydoni 6687 gektarni, xaydalma yerlar maydoni 1860.2 gektarni tashkil etdi. Fermer xo'jaliklari yer maydonlarining o'rtacha o'lchami 267.5 gektarni tashkil qiladi. Massiv xududidagi mavjud fermer xo'jaliklarida asosan ekiladigan ekin turlari maydoni aniqlandi. Unga ko'ra, ekinlar ekiladigan umumiy ekin maydoni 1860.2 gektarni tashkil etib, bundan paxta hosili uchun ajratilgan maydon 968.5 gektarni, bug'doy uchun 563.2 gektarni, qolgan boshqa turdagi yerlarni tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi" T.: O'zbekiston, 1992
2. I.A.Karimov, "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida", T.: O'zbekiston, 1995
3. I.A.Karimov, "O'zbekiston XXI bo'sag'asida", T. O'zbekiston 1997
4. I.A.Karimov, "O'zbekiston buyuk kelajak sari", T. O'zbekiston, 1998
5. I.A.Karimov. "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari". T.:O'zbekiston, 2009
6. I.A.Karimov. 2015-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. T.: O'zbekiston, 2016
7. O'zbekiston Respublikasi "Yer kodeksi". T. O'zbekiston, 1997
8. Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me'yoriy xujjatlar to'plami (I va II qismlar), T.: SHarq, 1998
9. O'zbekiston Respublikasining qonuni «Davlat yer kadastri to'g'risida». T:1998
10. Avezbaev S., Volkov S.N. «Yer tuzishni loyihalash» T.: YAngi asr avlodi,2004
11. Avezbaev S., Volkov S.N. «Yer tuzish iqtisodi». T.: Yangi asr avlodi, 2002
12. Bobojonov A.R., Raxmonov Q.R, G'ofirov A.J. «Yer kadastri» T.: TIMI, 2008.
13. Avezbaev S., Volkov S.N. « Yer tuzishning ilmiy asoslari» T Yangi asr avlodi, 2002
14. M.RAlimboev va boshq. "Yer huquqi".Darslik. T.: Toshkent Yuridik instituti, 2002
15. Yer tuzishda iqtisodiy matematik modellar va usullar. Shodmonova G., Abdullaev Z. O'quv qo'llanma. T: 2007
16. Qudratov O., G'aniev T. Favqulodda vaziyatlarda fuqoro muxofazasi. T.:Yangi asr avlodi, 2005
17. G'oyipov H.E. Mehnat muhofazasi. T.:Mehnat, 2000

18. Yunusov M.Yu., Ikromov E.J. Fuqoro muhofazasi doimiy zaruriyat. O`quv qo`llanma. T.: 2002
19. Zemleustroitelnoe proektirovanie – 2-e izd. (Uchebnik i ucheb. Posobiya dlya VUZov) www.ast.ru
20. Zemleustroitelnoe proektirovanie i organizatsiya zemleustroitelnyx rabot. www.prom.kz
21. Upravleniya zemelnix resursov i zemleustroystva. www.18.rosfirm.ru
22. Upravlenie monitoringa zemel, zemleustroystva i territorialnogo planirovaniya. www.kadastr.ru
23. Upravlenie ispol'zovaniem zemel selskoxozyaystvennogo naznacheniya v usloviyax. www.baseref.ru
24. www.Ziyonet.uz
25. <http://map.igras.ru/>
26. <http://www.dataplus.ru/Industries/12KartGd/GIS.htm>
27. http://www.dataplus.ru/Arcrev/Number_48/1_Kart.html
28. http://www.dataplus.ru/Arcrev/Number_48/24_CHehi.html
29. <http://gisa.ru/51782.html?action=print>
30. <http://geography.in.ua/index.php?rowstart=33>
31. <http://www.gis-center.kz/pmain/Default.aspx?page=prigl&lang=ru>
32. <http://gisexpert.ru/>
33. http://www-sbras.nsc.ru/win/gis_new/lib/reports/99/knc-gis99.htm#1p
34. <http://www.topcon.gsi.ru/art.php?id=17>
35. <http://www.gisa.ru/7585.html>